

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakulteti dekani

_____ dos.M.Rabbimov.
“_____” _____ 2012 y.

5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**Mavzu: Boshlang'ich ta'limning mashg'ulotlarida lisoniy o'yinlar va o'quv
ijodiy topshiriqlarni olib borish metodikasi** mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: TOYSHIBEKOVA N.

Ilmiy rahbar: Isroilova F.

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

Isroilova F

(ilmiy rahbar ismi va shariifi)

_____ (imzo)

BMI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası
yig'ilishining qarori bilan (Qaror № 10, 4.05.2012 y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

prof.Jumanazarov U.A.
(Ismi va shariifi)

_____ (imzo)

Jizzax - 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....

I BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....

1.1. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari.....

1.2. Muammoli o`qitish texnologiyasi.....

II BOB. LINGVISTIK O`YIN-TOPSHIRIQLAR ONA TILI DARSLARINING QIZIQARLI VA SIFATLI O`TISHINI TA`MINLAYDIGAN VOSITA SIFATIDA.....

2.1. Lingvistik o`yin-topshiriqlarning mazmun mohiyati.....

2.2. Qayta xotirlash xarakteridagi o`yin-topshiriqlar.....

2.3. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi interpretatsion o`yin-topshiriqlar.....

2.4. Ijodiy xarakterdagi o`yin-topshiriqlar.....

III BOB. BOSHLANG`ICH SINFLARDA GRAMMATIK O`YINLARNI O`TKAZISHNING METODIK USULLARI.....

3.1. Savod o`rgatish darslarida o`yin xarakteridagi mashqlardan foydalanish.....

3.2. 2-sinfda grammatik o`yinlarni o`tkazish yo`li bilan o`quvchilar bilimni mustahkamlash.....

XULOSALAR.....

ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH

Tanlangan va amalga oshirilgan muammo (mavzu)ning fandagi va o`quv jarayonidagi roli hamda uning dolzarbligi. O`zbek (ona) tilini o`qitish markazida til o`rganuvchilarning o`zaro hamda o`qituvchisi bilan nutqiy muloqoti turmog`i lozim bo`ladi. Ammo mana shu muloqot to`g`ri yo`lga qo`yilishi uchun grammatika qonun qoidalarini yaxshi bilishga qo`maklashuvchi topshiriqlardan i0borat mashg`ulotlar nazariy yoki amaliy ahamiyat kasb etibgina qolmay, talabalarning til o`rganishga bo`lgan qiziqishini shakllantiradi, orttirishga ham hissa qo`shishi talab etiladi.

Ana shu qiziqishni shakllantirishda, uni tobora mustahkamlab borishda qiziqarli grammatik topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda tayanch grammatik bilim olgan talabalar uning amaliy tadbirini tavsiya etilajak qiziqarli topshiriqlar misolida rivojlantirishlari ko`zda tutiladi.

O`qituvchi har bir mavzu va topshiriqni nafaqat nutq o`stirishga, shuningdek, yoshlar dunyoqarashini boyitishga, tafakkur doirasini kengaytirishga ham xizmat qildirishi shart ekanligini yodda tutishi darkor.

Til ta'limidagi to`rt zaruriy amal – tinglash, so`zlash, o`qish va yozishning mutanosib tarzda olib borishga harakat qilish zarurligini ta'kidlash joiz. Ammo mavzuning mazmuniga mos ish tutib, bir xil topshiriqlar og`zaki nutq, boshqalari yozma nutq ko`nikmalarini mustahkamlashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, o`zlashtirilgan har bir mavzu darsdan tashqari tadbirlar bilan uzviy bog`lanishiga erishish lozim. Bularni o`rni bilan sahna siqishlarini tashkil etish, rolli o`yinlar o`tkazish yaxshi samara beradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda va odilona nazar tashlanganda tanlangan va amalga oshirilgan muammo (mavzu)ning o`zi nihoyatda dolzarbligini, qolaversa uning o`quv jarayonidagi roli benihoyat katta ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatadi.

Yangi asr o`qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim te bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg`or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «**Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari**» asarida O`zbekistonda qabul qilingan o`ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini

ta'kidlagan¹. Buni ta'minlash bo'lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo'llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Prezidentimiz o'zining «**Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch**» asarida "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim," deb ta'kidladi².

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari: Boshlang'ich sinfning ona tili darslarida va sinfdan tashqari o'quv mashg'ulotlarida grammatik o'yinlarni o'tkazish usullarini tavsiflab berish, shu o'yinlar vositasida o'quvchi-yoshlarning bilim saviyalari yanada yuqorigi bosqichlarga ko'tarish va mustahkamlash borasida fikr-mulohazalarni yuritishi, shu sohada qo'llangan dastlabki ijodiy tajribalarimizni baholi qudrat bayon etish-muhokamaga qo'yilgan ushbu kamtarin malakaviy bitiruv shimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni o'z oldimizga qo'ydik:

1. Lingvistik o'yin-topshiriqlarning –ona tili darslarining qiziqarli va sifatli o'tishini ta'minlovchi vosita ekanligini izohlab berish;
2. Lingvistik o'yin-topshiriqlarning mazmun mohiyatini tavsiflash;
3. Qayta xotirlash xarakteridagi xarakteridagi o'yin-topshiriqlar mazmuni va namunalarni bayon qilish;
4. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi interpretatsion o'yin-topshiriqlar va ijodiy xarakterdagi o'yin-topshiriqlarning mazmun mohiyatini ochib berish;
5. Boshlang'ich sinflarda grammatik o'yinlarni o'tkazishning metodik usullarini baholi qudrat ishlab chiqish va pedagogik amalga qo'llash;
6. Savod o'rgatish darslarida o'yin xarakteridagi mashqlardan foydalanishning amaliy ahamiyatini izohlab berish;
7. 2-sinfning ona tili darslarida o'yinlarni o'tkazish yo'li bilan o'quvchilar bilimini mustahkamlash va hakoza.

Malakaviy bitiruv ishining manbasi: Mazkur ishning manbasi-fakultetimiz mutaxassisligi mos keladigan va shu sohada ishlashimiz mumkin bo'lgan bosqich-boshlang'ich sinf ona tili darslarida grammatik o'yinlarni o'tkazish yo'li bilan o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash.

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - Toshkent: O'zbekiston,2009. – 6.7.

² I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

- **Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Boshlang`ich ta'limning mashg`ulotlarida lisoniy o`yinlar va o`quv ijodiy topshiriqlarni olib borish metodikasi xususiyatlari aniqlandi.

- Boshlang`ich ta'limning mashg`ulotlarida lisoniy o`yinlar va o`quv ijodiy topshiriqlarni olib borish metodikasi xususiyatlarini aniqlandi.

- Boshlang`ich ta'limning mashg`ulotlarida lisoniy o`yinlar va o`quv ijodiy topshiriqlarni olib borish metodikasi usullarini nazariy asoslarini aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati sifatida quyidagilarni ko`rsatishimiz mumkin: boshlang`ich ta'limning mashg`ulotlarida lisoniy o`yinlar va o`quv ijodiy topshiriqlarni olib borish metodikasi usullari, yo`llari ko`rsatildi.

Boshlang`ich ta'limning mashg`ulotlarida lisoniy o`yinlar va o`quv ijodiy topshiriqlarni olib borish metodikasi ahamiyati ochib berildi.

Malakaviy bitiruv ishining mavzusi natijalarining joriylanishi hamda uning tarkibi: Malakaviy bitiruv ishi mavzusi dastlab fakultet ilmiy Kengashida, Institut o`quv uslubiy kengashida tasdiqlangan va rektor buyrug`i bilan rasmiylashtirilgan. Malakaviy bitiruv ishi «Boshlang`ich ta'lim uslubiyati» kafedrasining shu yillaridagi «Ona tili» to`garagi yig`ilishlarida muhokama qilingan.

Dastlabki himoya kafedra yig`ilishi muhokamasidan o`tib, ochiq himoyaga tavsiya etilgan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, 3 bob (har bir bob – birinchi bob 2 paragrafdan, ikkinchi bob 4-paragrafdan, uchinchi bob 2 paragrafdan iborat). Shuningdek, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

I BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Ilmiy-texnik taraqqiyot nafaqat aksariyat ishlab chiqarish sohasinigina texnologiyalashtiramoqda, balki u madaniyat, ta'lim sohalariga ham kirib bormoqda. Bugungi kunda informatsion axborot tibbiyot, ta'lim va boshqa texnologiyalar to`g`risida fikr yuritish mumkin.

Texnologizatsiyalash-bu obektiv jarayon bo`lib, ta'lim evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal qilish uchun tayyorgarlik davri.

Tarixan texnologiya tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog`liq ravishda yuzaga kelgan va bu tushuncha san'at, hunar va fan haqidagi ta'limotga muvofiq keladi.

Texnologiya deganda, odatda ashyolarni qayta ishlash metodlari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning ilmiy tavsiflarining majmui tushuniladi. Siyosiy lug`at (M., 1989)da texnologiyaga shunday izoh beriladi:

1) ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor ashyolarni qayta ishlash, tayyorlash holati, xususiyati, shaklirining o`zgarish metodlari yig`indisi;

2) ashyolar, materiallar va yarim xom ashyolarga muvofiq ishlab chiqarish qurollari orqali ta'sir o`tkazish usullari to`g`risidagi fan.

«Qomusiy lug`at»da ham shunga yaqin izoh beriladi, lekin unda birmuncha kengroq yoritiladi: «Fan sifatida texnologiyaning vazifasi har tomonlama samarali va tejamli ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda undan foydalanish maqsadida fizika, kimyo, mexanika va boshqa qonuniyatlarini bajarish.»(M., 1979)

Texnologiya grekcha so`z bo`lib, texnos- san'at, mahorat, logos-ta'limot degan ma'nolarni bildiradi.

Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkill etish bo`yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi.

Hozirgi davr ta'lim texnologiyalari muammosi, pedagogik innovatsiya tajribalari ularni bir tizimga tushirish va aniqlashtirishni talab qiladi.Oliy maktab oldida pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, ularning tasnifi, mohiyatini ochib berish va o`quv jarayonining texnologikligi muammolarini ta'minlash masalasi turibdi.

1.1. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko`rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o`rin egalladi, lekin

uni pedagogikaning mukammal lug'atlari (tezaus)dagi o'zni hali noma'lumligicha qolib kelmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb, hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

V.P. Bepalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi. Shu tariqa V.P. Bepalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi. Afsuski, hozirgi qadar pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo'q.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga jadallik bilan kirib borayotgan bo'lsa ham, uning maqomi noaniqligicha qolib ketmoqda. Tadqiqotchilarning ishlarida fan va amaliyot oralig'idan o'rin egallamoqda.

N.F.Talizina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Ularsiz pedagogik jarayon texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi.

Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

Shunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va g'arbiy evropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J. Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I. Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bepalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi

aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan bo'lib, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

T.A.Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya'ni o'qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi. Boshqalarida yo kompyuter orqali dasturlashtirilgan o'qitish yoki o'qitishning muammoli tuzilmasi ajralib turadi.

L.V. Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

1. Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. Bu muammoni tadqiq etish, o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini aniqlash bUan bog'liq.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun, pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'rflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«Pedagogik texnologiya - psixologik va pedagogik o'g'itlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«Pedagogik texnologiya — o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bepalko).

«Pedagogik texnologiya - rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«Texnologiya - ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. Shepel).

«Pedagogik texnologiya - talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tbmonlama o'ylangan modelidir.»(V. M. Manaxov).

«Pedagogik texnologiya - bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlan vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YuNESKO).

«Pedagogik texnologiya - pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo`lishning tizimli yig`indisi va tartibini bildiradi»(M.V.Klarin).

«Pedagogik texnologiya - o`zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi». (G.K. Selevko).

Bu ta'riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo`lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo`lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin.

Ta'lim texnologiyasi deganda ta'limning belgilangan maqsadi va talabning bilim darajasiga ko`ra o`quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo`lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

O`qitishning shaxsga yo`naltirilgan texnologiyasi biror nazariya va maqsad asosida ishlilab chiqiladi. Pedagogik tizimning amalda bo`lishi, uning moslanuvchanligi hamda talabning shaxsiy xususiyatlari, ularning texnologik va individual me'yorlari bilan bog`langan. Bunda ushbu texnologiyalarning moslashuvchanligi, ularning variativligi, talaba xatti-harakatlarining bosqichlilik muhim ahamiyat kasb etadi.

O`qitish texnologiyasi sathida o`quv jarayonining barcha komponentlari yoritiladi.

Shaxsga yo`naltirilgan texnologiya asosida talabalarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va Kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o`z-o`zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.

Bu tadqiqotlarni tahlil qilgan holda ushbu ta'rifni berish mumkin:

Pedagogik texnologiya ta'lim maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlantirish tizimi loyihasidir.

Oliy ta'limni isloh qilish, bu masalalarga ilmiy asoslangan nuqtai nazardan yondashishga majbur etadi. Har qanday loyihalash, o`qitishning ilmiy asoslangan vositalari bo`lgani holda, uning texnologikligi hisoblanmaydi.

Loyihalash metodologik funktsiya bajaradi. U talabning psixik rivojlanish qonuniyatlari, o`quv jarayonining rivojlanish xususiyatlari va pedagogik boshqaruv usullarining tadqiqot vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Oliy o`quv yurtida ta'limni takomillashtirish maqsadida pedagogik muloqotning yangi shakllari, axborotlarning tarkibiy qismlarini qayta ishlab chiqish, o`quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi.

Texnologik taraqqiyot, bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta'lim texnologiyasini yaxshilash jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir.

O`qitish texnologiyasi ta'limning faoliyatini ta'minlaydi, bilimlarni mehnat jarayoniga tatbiq etishni ta'minlaydi, pedagogning ongliligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo`liga ta'sir ko`rsatadi.

Kasbiy o`qitish texnologiyasi shaxsni intizom, iroda va ixtisoslikka bo`lgan qiziqishni yuzaga keltiradi. Mutaxassisga bo`lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo`naltiradi.

Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash texnologik tamoyili bo`lajak kasbga qaratilgan maqsadlar, mazmun funksiyalari, o`qitish metodlaridir. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalar ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyalar ta'riflariga bo`lgan turli yondashuvlar shuni ko`rsatadiki, haqiqatdan ham o`qitish texnologiyalari fan va ishlab chiqarish hamda o`quv-pedagogik jarayon oralig`idan o`rin oladi. Bu kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo`lib, u o`qitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog`langan. U o`quv faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalash va konstruksiyalash funksiyalarini o`zida qamrab oladi.

O`qitish texnologiyasi tarkibiga o`quv jarayonini boshqarishning aniq usullari, boshqarish va o`qitishning ayni istiqbolli tadbirlari haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilimlar kiritiladi. O`quv jarayonining borishi sharoitlariga mos ravishda ularning izchilligi belgilanadi.

O`qitish texnologiyasi, o`qitish nazariyasi, o`qitish texnikasi. Ular o`quv faoliyatini boshqarish haqidagi pedagogik sohalardir. Ular - umumlashtirilgan darajasiga ko`ra amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiya ta'lim istiqbolining jarayonlashtirilgan aspektidir.

O`qitish texnologiyasini belgilash - bu kasbiy faoliyat sohasidagi ta'limiy va takomillashish samarasini ta'minlovchi o`quv jarayonini me'yoriy boshqarib turishdir.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning uch aspekti to`g`risida fikr yuritiladi: ilmiy, tavsifiy, amaliy.

Ilmiy aspektda o`qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi hamda pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

Tavsifiy aspektida rejalashtirilgan o`qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

Amaliy aspektida pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi.

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi belgilanadi: umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul).

Umumpedagogik texnologiya yaxlit ta'lim jarayonini ifoda qiladi.

Xususiy metodik texnologiya bir fan doirasidagi o`quv -tarbiya jarayonini amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat bo`ladi.

Lokal (modul) texnologiya o`quv tarbiya jarayonining maxsus bo`limlariga texnologiyani tatbiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Pedagogikada, o`qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiy texnologiyalar ham o`rin olgan. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsa, o`qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb hisoblanadi, ya'ni ular orasida hali ham aniq farqlar belgilanmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo`lishi lozim.

Kasbiy ta'lim tizimida o`qitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarning o`zlashtirilishini, harakatlarning reflektivligini aks ettiradi va o`z kasbiy faoliyatini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya o`qituvchi va talaba faoliyati bilan belgilanadi. Faoliyatning bunday turlariga ko`ra pedagogik texnologiyaning tuzilmasi aniqlanadi.

Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi. U konseptual asos, ta'lim jarayoni mazmunini va texnologik jarayondan iborat bo`ladi.

Har bir pedagogik texnologiya muayyan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy konsepsiyasi ta'lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslashlarni qamrab oladi.

Ta'lim jarayoni mazmuni ta'lim jarayonining umumiy va aniq maqsadlari, o`quv materiali mazmunidan iborat bo`ladi.

Texnologik jarayon o`quv jarayonini tashkil etish, o`qituvchi faoliyati, talaba faoliyati, o`quv jarayonini boshqarish usullari, o`quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar har qanday pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlarni belgilaydilar.

Izchillik pedagogik texnologiyaning mezoni sifatida jarayonning mantiqiyliigi, pedagogik texnologiyaning barcha qismlarining o`zaro bog`likligi, yaxlitligani o`z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning mezonlaridan biri, uning boshqaruvga asoslanganligidir. U o`quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o`qitish metodlari va vositalari bilan o`zgartirib turishdan iborat bo`ladi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorlik mezoni ta'lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko`zda tutadi.

Qayta tiklash pedagogik texnologiyalar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiyalarni boshqa o`quv yurtlarida qo`llash imkoniyati tushuniladi.

Shunday qilib, oliy maktabda mutaxassislarning kasbiy tayyorgariigi murakkab va doimiy harakatdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo`lg`usi o`qituvchining texnologik tayyorgariigi alohida o`rin tutadi. U bo`lg`usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o`qishi, ijodiy shaxsning rivojlanishi, tafakkurning kasbiy yo`nalganligini idrok qilish, o`quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillarni amalga oshirish bilan bog`langan.

Bo`lg`usi pedagogning texnologik tayyorgariigi, oliy o`quv yurtida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Oliy o`quv yurti ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar: muammoli o`qitish, o`qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, programmashtirilgan o`qitish texnologiyasi, kompyuter axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasidir.

1.2. Muammoli o`qitish texnologiyasi

Muammoli o`qitish bu takomillashgan o`qitish texnologiyasidir. Hozirgi oliy maktabdagi samarador o`qitish texnologiyasi — bu muammoli o`qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o`qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o`qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o`qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o`sib boradi.

Hozirgi pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o`qitishning turli ta'rif va tavsiflari bor. Bizningcha, nisbatan to`liq va aniq ta'rif M.I.Maxmutova tomonidan berilgan bo`lib, unda muammoli o`qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o`rgatish va

dars berish usullarini qo'llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo'lgan qiziqish, talab v.x.k) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini, o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida, inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obektiv qonuniyatlari hamda didaktik tamoyil — muammolilikka tayanadi.

O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili, psixologvapedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat, kutilmagan xayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas.

U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negjzida awal o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'la bermasligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Yangi bilimlar awalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan obekt (tushuncha, fakt)ning unga awal va ayni vaqtda ma'him bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Shunday qilib, muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatdan chiqa olish, hamma vaqt muammoni, ya'ni nima noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va echimini anglash bilan bog'langan bo'ladi.

Muammoli vaziyatni fikriy tahlil qiladigan bo'lsak, u awalombor talabalarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o'rinda izchillik yorqin ko'rinadi: awalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi.

O'qitish amaliyotida boshqa variant — o'sha muammo tashqi ko'rinishda muammoli vaziyat yuzaga kelishiga muvofiq kelganday bo'ladigan variant ham uchraydi. Faktlar, hukmlar nazariy qoidalar ziddiyatlari mazmunidagi savollar ko'rinishidagi muammoning ifodasi odatda «nimaga» savoliga javob bo'ladigan muammoli vaziyatning mavjudligini aks ettiradi.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va awalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Awalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, shunda talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki echilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uni mustaqil hal kilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning echilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi.

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

- yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning qo'yilishi;
- talabalarda pota 'lumni topish yo'lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasi bo'lishi.

O'quv muammosini echish jarayonida talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning echilish usulini o'ylab topish yoki gipotezaqo'yish hamda gipotezani asoslashdir.

O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari, ma'lum va noma'lumning o'zaro munosabati xarakteri bilimga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, muammoli o'qitishning zaruriy sharti talabalarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi.

Talabalarning muammoli o'qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda talabalar mashg'ulotda muammoni ifodalab berishidan iborat bo'ladi, ya'ni

bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishi mohiyatini (ya'ni ushbu damda unga nima ma'lum bo'lsa) so'z bilan ifodalab beradi, so'ngra muammoning echilish usullarini qidiradi va bunda turli tahminlarni olg'a suradi, talabalar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi. Izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so'ng tugallanadi.

Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: muammoli vaziyat — o'quv muammosi — o'quv muammosini echish uchun izlanish — muammoning echilishi.

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon talabalarga tayyor haqiqatni (echimni) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

Muammoli o'qitish bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, atrof-muhitga o'zining faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina talabalar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarni shakllantirish hamda qo'lga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq etishga intiladi.

Ayrim hollarda o'qituvchi talabalarda nafaqat qiziqish uyg'otishi kerak, balki o'quv muammosini o'zi hal qilib qo'ymasligi va boshqa hollarda talabalarning o'quv muammosini echishdagi mustaqil ishlariga rahbarlik qilishi lozim, natijada talabalarda bilimlarga mustaqil erishish qobiliyati shakllanadi hamda gipoteza qo'yish va uni isbotlash orqali yangi aqliy harakat usullarini topadi hamda bilimlarni bir muammodan boshqasiga ko'chirish ko'nikmasini hosil qiladi, diqqat va tasavurlari rivojlanadi. Talabalar muammoli o'qitish jarayonida muammoli vaziyatda o'quv materiallarini idrok qilish orqali bilim va aqliy harakat usullarini o'zlashtirar ekan, o'rganilganlarni mustaqil tahlil qilish ekan, gipotezalar qo'yish va ularni isbotlash orqali o'quv muammolarini shakllantirar va echar ekan, bunda talabalarning intellektual faolligi ta'minlanadi.

Shunday qilib, muammoli o'qitishning vazifasi, talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatlari usullarini samarali o'zlashtirishga hamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini hosil qilish, bilish mustaqilligi hamda o'quv va tarbiya muammolarini hal qilishdir.

O'quv jarayonining amaliy tahlili muammosi o'qitishning o'ziga xosligini belgilash imkoniyatini ochadi. Muammoli o'qitishning mohiyati, ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborotlarni o'qituvchining maxsus tashkil qilishidan iboratdir.

Muammoli o`qitishni tashkil etishning birinchi sharti o`quv axborotlarining takomillashib borishi tizimidir.

Muammoli o`qitishning ikkinchi shartida muammoli o`qitish amalga oshiriladi va unda axborotning o`quv vazifasiga o`kazilishi vaqtida uni echish usulini tanlash imkoniyati ko`zda tutiladi.

Muammoli o`qitishning uchinchi sharti ta'lim oluvchining subektiv mavqei, ularning bilish maqsadlarini anglab etishi va qaror qabul qilishi, masalani hal qilish va natijani qo`lga kiritish uchun o`zlarining ihtiyorida bo`lgan vositalarni baholay bilishidir.

Muammoli o`qitishga asoslangan o`quv mashg`ulotlarini o`tkazish metodikasi unda qo`llanadigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda: ijodiy, qisman-ijodiy yoki evristik, axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish asosiy metodlar

hisoblanadi.

Ijodiy metod ta'lim oluvchining ijodiy mustaqilligini to`la amalga oshiradi. Unda talaba o`qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtda o`zlari ham o`quv muammosini shakllantiradi, o`zi mustaqil gipotezani echishga harakat qiladi, izlanishni amalga oshiradi va provard natijaga erishadi. Shu tariqa ijodiy metod qo`llash bilan talabalar faoliyati, olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi. O`qituvchi faqat talabalarning ilmiy izlanishlariga umumiy rahbarlik qiladi. Vazifalar esa ularning mustaqil o`quv-bilish xatti-harakatlarining to`la davriyligini ko`zda tutadi:

yo tahlilgacha axborotlar yig`iladi yoki echilishiga qadar o`quv muammosi qo`yiladi hamda echimlar tekshirib ko`riladi va yangi bilimlar joriy qilinadi.

Ijodiy metoddan o`rganilayotgan kursning umumiy asoslarini qamrab olgan eng muhim mavzulami o`tishda foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa boshqa barcha materiallarning tobora ongli o`zlashtirilishiga olib kelishi lozim. Shuningdek, bunday metodda mashg`ulot o`tkazish uchun o`qituvchi tanlangan bo`lim yoki mavzu talabalarning idrok qilishlariga qulay bo`lishini nazarda tutishi lozim bo`ladi.

Ijodiy metod ta'lim oluvchidagi uzoq vaqtni va maxsus sharoit yaratilishini talab qiladi.

Talabalarning ijodiy ishlari shakliy jihatdan rang-barangdir; Ular ma'ruza matnini tayyorlash va seminar tayyorgarlik ko`rish, u yoki bu masalaning nazariy holatini (adabiyotlar bilan birma-bir ishlash, hujjatlarni arxivda o`rganish) o`rganish, ko`rgazmali qurollar, didaktik materiallar tayyorlash va boshqalardir.

qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo`laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo`llanadi va unda hal g` qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini echishda asos bo`lib xizmat qiladi. Bunda talabalar o`quv

mummosining qo'yilishida, gipotezani taxmin qilish va isbotlashda faol qatnashdilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy unsurlarni o'zida qamrab oladi. Bunda o'qitishning qidiruv (izlanish) suhbat, talabalarning javoblari va to'ldirishlariga qo'shimcha qilgan holda o'qituvchining bayoni, faktlarni kuzatish va umumlashtirish usullari qo'llanadi. Bu hollarda talabalarning reproduktiv va qidiruv (izlanish) faoliyatining muvofiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o'quv muammosining mustaqil hal qilinishidan to ulardan aksariyati echilgunga qadar kuchli o'zgarib turishi mumkin.

Mashg'ulotlarda ijodiy suhbatni qo'llash maqsadga muvofiq topiladi. Talabalar bunday suhbat jarayonida o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan bilimlari, ijodiy faoliyati tajribasiga asoslangan muammoni izlaydi va mustaqil ravishda uning echimini topadi. Talabalar o'z tashabbuslari bilan savollarga javob beradilar yoki o'z chiqishlarida turli mulohazalarni bildiradilar, muammoning echilishidagi o'z variantlarini ilgari suradilar, hodisalar o'rtasidagi rang-barang aloqalarni qayd qiladilar, bahslashadilar, boshqalarning fikriga tanqidiy munosabat bildiradilar. Bu jarayonda o'qituvchining talabalarga yordam berish darajasi, ularning mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ijodiy suhbatga tayyorlashda o'qituvchining unga o'ta masuliyat bilan yondoshishi talab qilinadi. O'qituvchi bunday suhbatga oldindan jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim: avvaldan shunday savollar o'ylab topishi kerakki, ular talabaning u yoki bu hodisaning mohiyatini o'ylashga majbur hamdасuhbat yo'nalishi va gipotezaning ehtimol ko'rilgan variantlari va uning echilish yo'llarini bashorat qila olsin. O'qituvchi talabalarning umuman muammoni echish uchun etarli darajada tayyorgarlik ko'rib kelmasligini ham ko'zda tutishi va bunday vaqtda sodda va murakkablashtirib boruvchi qo'shimcha savollarni tayyorlab qo'yishi lozim. Bunday savollar orqali talabalar ijodiy hal qilishi shart bo'lgan vazifalarni qismlarga ajratish ham zarur bo'ladi, ya'ni muammo kichik muammolarga bo'linadi va muammoli vazifa echiladi. O'qituvchi bunday vaziyatda vazxninligini saqlashi, talabalarga tezroq yordam berish, kamchiligini tuzatish va yanglish fikr bildirganlarga tanbeh berishga shoshilmasligi, balki qo'shimcha savollar bilan o'zlarining xatosini anglashga va to'g'ri qaror qabul qilishga erishishi maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy suhbat davomida kamroq tayyorgarlik ko'rgan, jonli fikr olishuvlarda, shuningdek, indamaslikni xush ko'radigan talabalarga alohida axamiyat berish lozim. Bunday talabalarning hulqlarini ko'zda tutgan holda ulardan ham «sado chiqishi»ga erishish maqsadida ular uchun ham awaldan savollar tayyorlab qo'yish ma'qul bo'ladi.

Ijodiy xarakterdagi suhbat o'quv-tadqiqot ishlarining zaruriy bosqichi hisoblanadi. Unda talabalarning o'zida tadqiqot ishlari unsurlari mavjud bo'lgan qisman-ijodiy faoliyatning bajarilishini talab qiladigan muammoli xarakterdagi mantiqiy masalalar diqqatni jalb qiladi.

Materialni muammoli bayon qilish. Bunda ijod o`qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va tobora faollashtirib boriladi. O`qituvchi yangi materialni bayon qilishda, uning echilishini o`zi ta'minlaydi. Bunda o`qituvchi ziddiyatlarni ta'kidlaydi, uni barchaga eshittirib muhokama qiladi, o`z mulohazalarini bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida asoslaydi. O`qituvchi bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshira olsa, talabalar uning fikrlari borishiga diqqat bilan qo`shilib boradi, muammolarning echilish oqimiga qo`shilib ketadi hamda birga fikr yuritadi. Birga hayajonlanadi, shu tariqa mashg`ulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda o`qituvchi talabaning bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish yo`li bilan boshqaradi va shu orqali auditoriyadagi o`rganilayotgan materiallar bo`yicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi va talabalarni o`ylab fikr yuritishga majbur qiladi. O`qituvchi tushunilmagan savolni hal qilishidan oldinoq talabalar o`zlaricha o`z javoblarini tayyorlab qo`yadilar va uni ma'lum muddat o`tgach o`qituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Materialni muammoli bayon qilish axborotni bayon qilishdan tubdan farq qiladi. Chunki unda u yoki bu hodisaning belgilari, xossalari, tushunchalari, qoidalari shunchaki tasvirlab beriladi, tayyor xulosalar bayon qilinadi.

O`quv axborotlarining muammoli bayoni metodidan foydalanishning boshqa varianti, fan taraqqiyoti tarixidagi u yoki bu qonunning olimlar tomonidan kashf etilishi yo`lini yoritib berish bo`lishi ham mumkin.

O`quv jarayonida keng tarqalgan metodlardan biri — shartli ravishda o`quv axborotlarining bayonini muammoli boshlash deb nomlanadigan metoddir. Materialni muammoli bayon qilish metodidan bu metod muammoli vaziyat faqat materialni bayon qilish boshidagina yaratilishi bilangina farqlanadi. Keyinchalik material axborot usulida bayon qilinadi. Albatta, bu metod yuqorida talabaning ijodiy izlanish faoliyati, ayniqsa, ijodiy metodida ko`ringan ko`nikmalarni hosil qilishga imkoniyat bermaydi. Lekin talabalarning mashg`ulot ibtidosida olgan ilxomlari barcha materialni faol idrok qilishga, unga yuqori qiziqish uyg`otishga bevosita turtki beradi. Yuqoridagi barcha metodlar orasida bu metod o`zining oddiyligi bilan ajralib turadi.

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi ehtimol ko`ringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: o`quv materialiga talabalar diqqatini jalb qilish, ularning bilishga bo`lgan qiziqishini uyg`otish, talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellektual zo`riqish mashaqqatlariga olib kelish, talabalar tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va ko`nikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bo`lgan talabalarini qondira olmasligini ko`rsata bilish hamda talabalarga o`quv muammolarini tahlil qilishga, uning echilishidagi eng ratsional yo`llarni aniqlashda yordam berish kerak.

O`quv jarayonidagi muammoli vaziyatning bir necha turlari farqlanadi:

1. Talabalar qo'yilgan vazifaning echilish usulini bilmaydilar, muammoli savolga javob berolmaydilar.

2. Talabalar avval olgan bilimlarini yangi sharoitda, holatda foydalanish zaruriyatiga duch keladilar.

3. Vazifaning nazariy jihatdan echilishi mumkin bo'lgan yo'li va tanlangan usulning amaliy jihatdan qo'llash qiyinligi orasida ziddiyat yuz beradi.

4. Vazifaning bajarilishida natijaga amaliy erishish va talabalarda uni nazariy jihatdan asoslashga bilim etishmasligi o'rtasida ziddiyat yuz beradi.

Adabiyotlarda muammoli vaziyat yaratishning quyidagi ko'p uchraydigan usullari qayd qilinadi:

- hodisalar, o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini tushuntirish uchun muammoli vazifalar qo'yish;

- olingan bilimlarning amaliy tadbiri usullarini topish uchun muammoli vazifa qo'yish;

- talabalarni hodisalar va faktlar orasidagi ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni tushuntirib berishlariga undash;

- ilmiy tushunchalari va hayotiy tasavvurlari orasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradigan fakt va hodisalarni tahlil qilishga undash;

- talabalarni fakt, hodisa, xatti-harakatlar, xulosalarni solishtirish, qiyos qilishga undash;

- talabalarni go'yo tushunib bo'lmaydigan xarakterdagi va fan tarixida ilmiy muammoning qo'yilishiga sabab bo'lgan faktlar bilan tanishtirish.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari uning boshqa variantlariga chek qo'ymaydi. Har bir o'qituvchi o'zining amaliy faoliyatida o'quv materiallari bilan ijodiy ishlash jarayonida uni tashkil qilishning turli imkoniyatlarini qidirishi va topishi mumkin.

Talabalarning fikrlari tobora qiyomiga eta borib, muammoli vaziyat ularda ma'lum xissiy hozirlikni vujudga keltiradi. Mustaqil amalga oshirilgan bilish jarayonidan, kashfiyotlardan qoniqish hosil qiladi. Xayratga tushish, tushkunlik yoki shodlik hissiyotlari muammoli vaziyatni to'g'ri tashkil qilish belgilari bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, yuqori ko'tarinkilik bilimlarni samarali o'zlashtirish, haqiqatni qidirish va unga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Muammoning murakkabligi, talabalarning bilim saviyasi va malakasi, ularning ijodiy faoliyati ko'nikmalari, didaktik maqsadga yo'nalganligiga qarab muammoli o'qitishda talaba va o'qituvchi o'zaro munosabatlarining turli variantlari bo'lishi mumkin, ya'ni muammolilikning turli sathlari amalda bo'lishi mumkin.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan muammolilikning uch sathi haqida fikr yuritiladi:

Birinchi sathda o`qituvchi o`zi muammoni qo`yadi, uni shakllantiradi va talabalarni mustaqil ravishda uning echilish yo`lini qidirishga yo`naltiradi.

Ikkinchi sathda o`qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, talabalar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va echadilar.

Uchinchi sath — oliy sath bo`lib, unda o`qituvchi shunday qoidani ko`zda tutadi: muayyan muammoni ko`rsatib bermaydi, balki unga talabalarni «ro`baro`» qiladi hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo`naltiradi, ularni boshqaradi va natijani baholaydi. Talabalar esa muammoni mustaqil anglyadilar, uni shakllantiradilar, uning echilish usullarini tadqiq qiladilar.

O`quv muammosining qo`yilish jarayonini osonlashtirish uchun muayyan tartibga rioya qilish lozim bo`ladi. echilish lozim bo`lgan hamda yangi tushunchalar bilan bevosita bog`liq bo`lgan awalgi o`zlashtirilgan bilimlar doirasini faollashtirmasdan turib, muammoni qo`yib bo`lmaydi. Muammoli vazifalarni tashkil qilishdan oldin talabalarning sabab-oqibat aloqalarini o`mata olish usullarini egallaganligiga ishonch hosil qilish, talabalarning muammoli vaziyatni tahlil qila olish darajasini o`rganish shartdir. Shuningdek, o`qituvchi talabalar e'tiboriga faqat ular uchun qulay bo`lgan muammolarni qo`ymasligi ham mumkin. Shu bilan birgalikda muammoning echilishi uni to`g`ri qo`ya bilishga ko`p jihatdan bog`liq ekanligini unutmaslik zarur.

Bu qoidalarni amalga oshirish, awalo o`quv materialining mazmun xususiyati bilan bog`liqdir. Uning tarkibi va tuzilmasiga qator talablarni qo`yish mumkin.

O`quv materiali quyidagi mazmunni qamrab oladi:

- yangilik unsurlari (yangi tushunchalar, yangi belgilar, xususiyatlar, noma'lum tushunchalarning jihatlarini, yangi aloqalar, harakatlanishning yangi usullari);
- faktlar, bilish vazifalari va masalalari, ziddiyatlari ko`rinishidagi materiallarni qamrab olgan ma'lum va yangi bilim o`rtasidagi ziddiyat;
- umumpedagogik va didaktik tamoyillarni hisobga olgan pedagogik nazariyaning metodologik asoslari materialini mantiqqa muvofiq bayon qilish.

Shuni ta'kidlash lozimki, o`qitish jarayoni faqat «muammoli» yoki «nomuammoli» metodlar yordamidagina amalga oshmaydi, balki uning samarali borishi uchun xilma xil metodlarni qo`llash maqsadga muvofiqdir. O`qituvchi mashg`ulotning maqsadi, o`quv materiallarining mazmunini to`plash, auditoriyada qatnashgan talabalarning xarakteri, ularning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ularni tinglash hamda birini ikkinchisi bilan bog`lashni amalga oshiradi. Shundagina o`quv jarayonining yuqori samaradorligi ta'minlanadi. Shuningdek, muammoli o`qitishning samaradorligi ko`p jihatlardan talabalarning ijodiy faoliyatiga, muammoni ifodalash va echilishga bo`lgan tayyorgarligiga bog`liq bo`ladi. Ularni ijodiy faoliyatga jalb qilishda muammoli boshlash

bayonidan asta-sekin tadqiqot ishlarigacha o'tish tavsiya etiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning barcha metodlari zanjirida asta-sekin oddiydan murakkabga O'tish kerak bo'ladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda talabalarning ijodiy faoliyati reproduktiv, qayta ishlab chiqish metodlarini shakllantirmasdan awal amalda bo'la olmasligi ta'kidlanadi. Agar o'rganilayotgan kursning (bo'lim, mavzuning) mohiyatini, ulardan foydalanishning zarur metodik materiallari va qoidalarini talabalar bilmasa va anglamasa, o'qituvchi ularning ijodiy faoliyatini tashkil eta olmaydi.

Demak, muammoli o'qitish etarli darajada samarali bo'lishi uchun u yaxlit o'quv-tarbiya jarayonining uzviy qismi bo'lishi kerak.

Muammoli leksiya o'tkazish jarayonida talabalarda ijodiy faoliyatga zarur bo'lgan motivlar, qimmatli yo'l-yo'riqlar va yo'llanmalar shakllanganligi muhim o'rin egallaydi.

Ta'kidlash joizki, o'quv faoliyati motivlarining doirasi juda ko'p motivlar yig'indisi bo'lsa-da, ulardan ikki guruhi belgilovchi hisoblanadi.

Birinchi guruhga maxsus motivlar taalluqli. Ular talabalar tomonidan barcha hayotiy ehtiyojlarni chuqur anglash, mutaxassis bo'lib etishishi uchun bilimlarni egallashning ijtimoiy zarurligini tushunishni qamrab oladi. Bu guruh motivlarini o'qituvchi kursning amaliy xarakteri va kasbiy yo'nalganligini namoyish qilish orqali talabalarning tushunchalarini amalda qo'llash yo'li bilan kuchaytirishi mumkin.

Ikkinchi guruh motivlari o'quv fanlari va bilishga bo'lgan qiziqish bilan bog'langan. Bu guruh motivlari mohiyatini o'qituvchi talabalardagi o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishni bilish to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish orqali kuchaytirishi mumkin. Buning uchun leksiya jarayonida xatti-harakatlarning namunaviy usullari, tushunchalar tizimining mantiqiy usullari, aniqlanmalar, xislatlar va boshqa isbotlovchi qurilmalarning «tushunchalar asosida xulosalar» xatti-harakatlari shakllanishining didaktik qimmatini belgilovchi o'quv materialiga urg'u beriladi.

Talabalarda yuqorida bayon qilingan malakalarni shakllantirish uchun leksiyaning o'tkazish uchun shunday tayyorgarlik ko'rish ko'zda tutilishi kerakki, ular tayyor bilimlarni chaqqonlik bilan harakat usullariga aylantira olsin. Bu didaktik maqsadga erishish uchun talabalarning echimlarni qanday shakllantirishlariga, tushunchalar echimining qanday usullari borligiga, u yoki bu ifoda qaysi talablar asosida qoniqtirilayotganiga, dastlabki omil, argumentlar hamda xulosalarga diqqatni jalb qilish lozim.

O'qitishning bu metodini leksiya o'qitishning axborot - tasviriy yondashuvdan, qisman ijodiy va ijodiy metodga o'tish orqali amalga oshirish mumkin. Ular talabalarda leksiyaning turli bosqichlarida va sharoitlarida muayyan bilish mashaqqatlarini tug'diradiki, ular o'qitish jarayonida avval shakllangan bilim va ko'nikmalarni joriy etish hamda qayta ishlash asosida muvaffaqiyatli hal kilinadi.

Talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlash tizimida o`qituvchining leksiya jarayonida ularga e'tibor qaratishi, o`quv-bilish faoliyatiga mos ko`rsatmalarni bera olishi muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda lektsiyada o`quv fani mazmunining umumiy-ta'limiy qimmatini isbotlash bilan birga uning shaxs intellekti, dunyoqarashi, bilimlarni tasniflash va qo`llash usullari, ulardan tejamli foydalanish hamda to`g`ri baholay olish tarbiyasiga ta'sir etishni ham isbotlash lozim bo`ladi.

Shuningdek, bunday eksperiment (amaliyot), egallangan bilimlar, fikrlarni (xukmlarni) qurish usullarining haqiqiylikini tasdiqlashga qaratilganligi ta'kidlanishi lozim. O`quv mashg`ulotlarining bunday borishi talabalarda ilmiy-nazariy tadqiqot va eksperiment o`tkazish malakasini shakllantiradi. Bu bilan ular ilmiy ijod kengligiga, ishchanlik muloqotiga qiziqadi, tadqiqotning bosqichlarini rejalashtiradi, uning maqsad va vazifalarini ifodalaydi, metodikasini ishlab chiqadi.

Muammoli o`qitishning talablar darajasidagi sifatini ta'minlash, talabalar tomonidan o`zlashtirilgan axborotlar bo`yicha bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida seminarlar o`tkazish mumkin.

Ma'lumki, bunday seminar o`tkazishning dastlabki maqsadi ma'ruza yoki axborotni jamoa bo`lib muhokama qilishdir. Seminarining samaradorligi albatta talabalami unga tayyorlash sifatiga bog`liq. Ayniqsa, ma'ruza va axborot tayyorlayotgan talabalar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

Talabalami seminarga tayyorlash bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Birinchi bosqichda o`qituvchi talabaning seminar mavzusini aniqlab beradi. Mavzuni tanlash va bo`lg`usi ma'ruza yoki axborotni tayyorlashda ularga nisbatan shunchaki o`qituvchi, talaba deb qaramaslik kerak, balki ularni seminarida muhokama qilinadigan mavzuning ahamiyatini, dolzabligini fikrlashga, o`quv fanini keyinchalik muvaffaqiyatli egallash uchun uni chuqur o`rganishi lozimligini anglashga, bo`lg`usi kasbiy faoliyatining hozirgi ijtimoiy, ilmiy muammolarini rejalashtira olish darajasiga olib kelish zarur. Bunda vaqtni tejash, tashkiliy ishlarni olib borishni jadallashtirish uchun talabalarga mavzu bo`yicha adabiyotlarni, imkoni boricha, mavzulari, paragraflari va sahifalarini ko`rsatgan holda tavsiya etish lozim. Talabalami ma'ruza va axborotlarga tayyorlashning birinchi bosqichida uning mavzusi bo`yicha referatning batafsil rejasini tuzish vazifasi yuklanadi.

Ikkinchi bosqichda talabalami ma'ruza qilishga tayyorlashda o`qituvchi u bilan birga referat rejasini muhokama qiladi, uning ayrim o`rinlarini tuzatadi. Bu o`z navbatida dastlabki fikrlarni tezlikda tuzatish, aniqlik kiritish, to`ldirish imkonini beradi va u pirovard natijada bo`lg`usi ma'ruzaning sifatini oshiradi.

Uchinchi bosqichda o`qituvchi talaba tayyorlab kelgan referatning mazmuni bilan tanishadi. Zaruriyat tug`ilganda, unga savollar qo`yish, talaba esa bu suhbatdan so`ng tegishli tuzatishlar qilishi lozim bo`ladi. Shuningdek, shunday savollarni ham berish kerakki, talaba bu savollarga o`z

chiqishida javob bersin. Ayni o`rinda talabaning seminarida ma'ruza qilish uslubi ham muhokama qilingani ma'qul.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, faqat ma'ruza bilan qatnashadigan talabalar bilan ishlab, boshqa talabalar nazardan chetda qolmasin. Balki guruhdagi barcha talabalar oldindan muhokama qilinadigan mavzular bilan tanish bo`lishi, seminar mavzusi bilan aloqador leksiya va qo`shimcha materiallar mazmuni ustida ishlagan bo`lishi, mavzuga muvofiq ravishda olinayotgan bilimlarni nazorat qilishga va mavzuni muhokama qilishga tayyor bo`lishlari lozim. Bunday seminar mashg`uloti odatda muhokama qilinadigan mavzuning mohiyati va dolzarbligi lektsiya materiali bilan bog`lashni eslatish bilan boshlanadi. Shundan so`ng talabalar o`rganilayotgan masalani muhokama qilishga faollashtiriladi, bilimlarini namoyish qila olishi aniqlanadi.

Bu ikki yo`l bilan amalga oshiriladi: yo qisqacha javoblar talab qiluvchi va oldindan tayyorlab qo`yilgan savollar bo`yicha suhbat shaklida yoki tuzatish (korreksiya) test savollari asosida nazorat qilish orqali. Tajribalar shuni ko`rsatadiki, bu har ikkala bilimlarni yuzaga chiqarish usuli tezkor usul bo`lib, seminarining ushbu bosqichini o`tkazishning muhim samarali sharti hisoblanadi. Talabalar bilimlarini yuzaga chiqarish jarayonida ularning egallagan bilimi keyingi seminarlarda va muhokamalarda qatnashishlari uchun etarli ekanligi aniqlanadi. Talabalarda muhokamadan so`ng ham bilimlar etarli bo`lmasa, o`qituvchining bayoni orqali yoki talaba bilan individual suhbat shaklida tushuntiriladi. Ulardan qay biri samara bersa, shunisidan foydalanilgani ma'qul. Keyingi variant nisbatan samarali bo`lishi mumkin.

Bilimlar yuzaga chiqarilgan va ayrim tuzatishlar qilingandan so`ng, talabalarning ma'ruza va axborotlar bilan chiqishlari tashkil etiladi. O`qituvchi talabaning materialni mantiqiy bayon qila olishini, uni bayon qilish usulini, talabalarning unga bo`lgan e'tiborini kuzatib boradi. Ma'ruzaning mazmunini bayon qilish yoki muhokamaning borish jarayoni talabalarni zeriktirib qo`yganda yoki aksincha, undagi ayrim masalalarga qiziqish kuchli bo`lganda hamda uni muhokama qilish zaruriyati tug`ilganda, hurmatini saqlagan holda ma'ruzachini biroz to`xtatib, seminarini jamoa muhokamasiga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruzani guruh bo`lib muhokama qilish pedagogik aspektida seminarining eng ahamiyatli qismi hisoblanadi, binobarin, seminarida talabalar jonli bilish faoliyatiga jalb qilinadilar. O`qituvchi awalo ma'ruza va axborot mazmunini muhokama qilishga o`tar ekan, bu mazmun qanchalik talabalar darajasida ekanligini baholay olishi lozim. Ma'ruza mazmunining tushunilishi ma'ruzachiga shu seminar qatnashchilarining bergan savollari va talabalarning o`qituvchi tomonidan qo`yilgan savollarga (o`qituvchi odatda ularning o`zlari savol bermagan taqdirda yoki ularning savollari mavzu mazmunining bir tomonigagina aloqador bo`lganda talabalarga savol bilan murojaat qiladi) javob berishlari chog`ida baholanadi.

Ma'ruza mazmuni bo'yicha beriladigan savollarni ikki guruhga ajratish mumkin: mazmuni oydinlashtiradigan savollar va mazmuni rivojlantirishga qaratilgan savollar. Mazmuni oydinlashtiradigan savollarga javoblar ma'ruza bayonidagi ayrim o'rinlarni takrorlashni talab qiladi, mazmuni rivojlantirishga qaratilgan savollar esa ma'ruzani yanada to'ldirishni talab qiladi. O'qituvchi avvalo birinchi guruh savollarni tashkil etadi, undan so'ng ikkinchi guruh savollarga jamoa bo'lib javob qidiradi. Mazmuni rivojlantirishga qaratilgan savollarni muhokama qilish ko'pincha talabalarda turli, muqobil javoblarni ham yuzaga keltiradi. Bunday javoblarning bo'lishi xilma—xil nuqtai nazarlarning to'qnashuviga sabab bo'ladi va u seminarning munozaraga aylanishiga olib keladi. Seminarini munozara shaklida tashkil etish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanadi. Munozara shaklida seminar o'tkazish talabaning fikrlash va muloqot qobiliyatlarining shakllanishi uchun tezkor omil sifatida katta ahamiyatga molikdir.

Seminaridagi munozara quyidagilarni ko'zda tutadi:

- seminar jarayonida qo'yilgan savollarga javob berishda talabalarning erkin fikr bildirish va asoslay olishlarini ta'minlash;
- taalluqli javoblarning boshqa talabalar tomonidan tushunilishini ham ta'minlash;
- nuqtai nazarlarga tanqidiy mulohazalar bildirishni tashkil etish, ularni oydinlashtirish, to'ldirish, o'zgartirish;
- oydinlashtirilgan, to'ldirilgan, o'zgartirilgan fikrlarning tushunilishini ta'minlash;
- qo'yilgan savollarga yakdil isbotlar asosida javoblar berishga ko'nikma hosil qilish.

Munozarani shu jarayonda qo'yilgan savollarga berilgan javoblardan iborat xulosalarni shakllantirish va shunday muammolarni belgilash orqali yakunlash kerakki, ular keyingi seminarlar yoki talabalarning mustaqil ishlarida hal qilinadigan bo'lsin.

Har bir ma'ruza muhokamasi lining asosiy qoidalari va muhokama (munozara) natijalarini qayd qilgan holda qisqacha umumlashtirish bilan yakunlanishi lozim. Seminar mavzusining mazmunini xulosalash, ma'ruzachilar va seminar qatnashchilarining tayyorgarlik darajasini, ularning seminar davomidagi faolligini baholash hamda seminar samaradorligining umumiy bahosi va keyingi seminar mashg'ulotiga maqsad qo'yish bilan tugallanadi.

Shunday qilib, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminarlar quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- 1.Seminar mavzusining dolzarbligini asoslovchi o'qituvchining kirish suhbatini.
2. Seminar mavzusi mazmunini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni yuzftga chiqarish.
- 3.Tayyorlangan ma'ruzasi bo'yicha talabalarning chiqishlarini tashkil etish va ularning ko'targan masalalarini seminar qatnashchilarining tushunib olishlarini ta'minlash.

4Seminariga qo`yilgan talabalar ma'ruzalarining muhokamasini tashkil etish.

5. Seminarni yakunlash.

Talabalarning o`z faoliyatlarini tashkil etishni shakllantirish va rivojlantirishga esa bilimlarni egallash, maqsad va vazifalarni qo`yish malakasini hosil qilish, o`z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni ko`zda tutgan seminarlar katta yordam beradi. Bunday malakalarni shakllantirish, odatda, o`quv ishlari mazmunini tashkil etuvchi materiallar, leksiya, ilmiy va o`quv-metodik adabiyotlarni konspekt qilish, ma'ruza va referatlarni yozish, o`quv va ilmiy axborotlar mazmunini tushunish va eslab qolish asosida amalga oshiriladi.

Bu tipdagi seminariga tayyorgarlik ko`rishda o`qituvchi talabalar mutaola qiladigan materiallar asosida bajariladigan ishlarning tamoyillarini, o`ziga xosligini, metodikasini o`rganadi, ishlarning bajarilish muvaffaqiyatlari (natijalari)ni baholash me'yorlarini to`lalgicha yoki ayrim qismlari bo`yicha belgilab chiqadi va pirovard natijada talablar darajasiga etkazadi.

- meyorlari asosida bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish va baholash;
- o`z ishlarini takomillashtirish bo`yicha vazifa qo`yish.

Seminarning bu turiga tayyorgarlik ko`rishda talabalar o`qituvchining topshirig`iga ko`ra o`quv ishlarining u qadar katta bo`lmagan konkret material tarzidagi muayyan turini (masalan, konspektlashtirish) mustaqil bajaradilar. O`z faoliyatlarini tashkil etish malakalarini shakllantirishda talabalar quyidagi izchillikdagi bloklar harakatlarini bajarishi lozim bo`ladi:

- berilgan o`quv materiallari asosida muayyan o`quv ishlari turlarini bajarish, konspektlashtirish, referat yozish;
- bajarilgan ishlar natijalarini namunaga qiyos qilish va faoliyat natijalarini muvaffaqiyat me'yorlariga ko`ra baholash;
- bu turdagi ishlarni samarali bajarish metodikasi bilan tanishish;
- tanlangan metodikaga mosligini aniqlash orqali bajarilgan ishlardan foydalanish usullarini tahlil qilish va baholash;
- o`z faoliyatiga baho bergan holda ishlarni samarali bajarish metodikasini oydinlashtirish va yangi material asosida ishning bajarilish rejasini tuzish;
- belgilangan reja asosida ishlarni bajarish, yuz beradigan qiyinchiliklarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va uning oldini olish usullarini qidirib topish (o`qituvchining yordamida); faoliyatning muvaffaqiyatli chiqishligi seminar sifatida tavsiya etadilar.

O`qituvchi seminarni boshlar ekan, talabalar uning maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi va ular tomonidan bajarilgan vazifalarni tekshiradi. So`ng o`qituvchi talabalarga oldindan tayyorlab qo`ygan vazifalarni bajarish namunalarini ko`rsatadi va talabalar bajargan ish natijalari bilan qiyoslashni tashkil etadi. Talabalar o`z ishlarini namunaga qiyoslash orqali bevosita ular orasidagi farqlarning mavjudligiga ishonch hosil qiladi va o`z malakalarini takomillashtirish zarurligini

anglab oladilar. Bajarilgan ishlar natijalarini baholashga aniqlik kiritish maqsadida talabalarning namunaga javob berish me'yorlarini anglashiga erishish lozim. Talabalar bajaigan ish natijalari belgilangan me'yorlar tizimiga mosligiga qarab baholanishga ishonch hosil qilishlari kerak. Talabalar tavsiya etilgan me'yorlardan foydalangan holda o'qituvchi rahbarligida awalgiga nisbatan yana ham jiddiyroq ravishda bajarilgan ish natijalarini baholaydilar. Shu tariqa talabalarda o'z faoliyati natijalarini nazorat qilish va baholay olish malakasi poydevori yaratiladi. Bunda talabalarga o'z o'quv (faqat o'quv bo'lmasligi ham mumkin) ishlarining natijalarini yalpi va qismma-qism me'yorlar tizimiga mos ravishda nazorat qilish mumkin " va lozim ekanligini tushunishlari ta'minlanishi kerak. Bu o'z navbatida o'tkazilgan ishlar natijalarining qay darajada namunaga mos yoki mos emasligini va o'z faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilab olish imkoniyatini beradi.

O'qituvchi talabalar tomonidan bajarilgan ishlarni baholab bo'lgach, ularni muayyan ishlarni samarali bajarish metodikasi bilan tanishtiradi. Bu metodikaning har bin kutilgan natijalarni olish nuqtai nazardan zarur bo'lgan, asoslangan xatti-harakatlar izchilligini tavsiflashni taqozo qiladi. Shu metodika tarkibiga kirgan har bir xatti-harakatning bajarilish sifatini baholashga asos bo'ladigan me'yorlari beriladi.

Ishni bajarish metodikasi bilimlariga ega bo'lgan talabalar o'qituvchming topshirig'iga binoan ularning izchilligini, awal amalga oshirilgan xatti-harakatlarini tahlil qiladilar va uning ishlab chiqilgan metodikaga muvofiqligini aniqlaydilar. Natijada har bir talaba o'z faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida zarur bo'lgan xatti-harakatlarni belgilab oladi.

Shundan so'ng talabalarga avvalgi seminardagidek, lekin boshqa mazmundagi o'quv ishlari topshirig'i beriladi. Talabalar topshiriqni bajarib bo'lgach, o'qituvchi bajarilgan bir necha ishlar namunasidan olingan natijalarni guruhda muhokama qilishni tashkil etadi. Muhokamada ya'ni seminar avvalida taklif etilgan baholar me'yoridan foydalaniladi. Har bir talaba ishidagi kuchli va kuchsiz o'rinlarni qayd qilgan hamda shu me'yorlarni qo'llagan holda o'zi qo'lga kiritgan natijalarni baholaydi.

Seminar mashg'uloti unga yakun yasash bilan tugaydi. O'qituvchi talabalar tomonidan bajarilgan ishlar natijasini baholab u ishda muvaffaqiyatli qatnashganlarni alohida ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yganlarni ham qayd qiladi va ishlash usullarini kelgusida takomillashtirish, ya'ni keyingi mashg'ulotlarda qanday vazifalar qo'yilishini belgilab beradi.

Umuman, seminar talabalarning o'z faoliyatlarini tashkil etish malakalarini jonlantirish quyidagi bosqichlarni ko'zda tutadi:

7. Seminarning maqsad va vazifalarini shakllantirish;

2. Talabalarning dastlab bajargan ishlari natijalarini o'zlari baholashlari va tahlil qilishlarini tashkil etish;

3. ishni bajarish metodikasi bilan tanishtirish;

4. talabalar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki ishlarning bajarilish usullari tahlilini tashkil etish;

5. yangi mazmundagi ishning rejasini tuzishni tashkil etish;

6. belgilangan reja asosida ishning bajarilishini tashkil etish;

7. bajarilgan ish natijalarini tahlil qilish va baholashni tashkil etish;

8. mashg'ulotga yakun yasash.

Ta'kidlash joizki, ko'rib chiqilgan seminar tiplari talabalarni muammoli o'qitishga tayyorlash uchun zarur bo'lgan va bir qancha pedagogik vazifalarni bajarishga qaratilgan mashg'ulotlar tizimini bildiradi. Bunday o'qitish bevosita muammoli tipdagi seminarlarda amalga oshirilishi mumkin. Seminar mashg'ulotining mavzusi zudlik bilan hal qilinishi mumkin bo'lmagan muammo shaklida berilishi mumkin.

Fikrlash usullarini rivojlantirishga qaratilgan seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi quyidagi masalalarni qamrab olgan va jiddiy o'ylangan stsenariysini ishlab chiqadi:

- talabalarining muammoni echishda qatnashishi uchun etarli bo'lgan bilimlarini yuzaga chiqarish qobiliyatini hamda bilimlarni yuzaga chiqarish uchun zarur bo'lgan vazifalarni tavsiflash;

- talabalardagi bilimlarni yuzaga chiqarish asosida muammoga va muammoni ifodalashga kirishish;

- muammoni to'g'ri hal qilishning so'nggi xulosasi (qarori) — natijasini shakllantirish;

- masalani to'laligicha echishni ta'minlaydigan muammoni shakllantirish;

- muammo tarkibidagi muammolargajavoblardan iborat oraliq xulosalarni shakllantirish;

- muammo tarkibidagi muammolarning echilishida to'g'ri javoblarni ta'minlovchi muammo savollarini shakllantirish.

Muammoli savollar tizimini ishlab chiqishda talabalarni o'ylashga majbur qilish hamda ularning javoblari ehtimoli nazarda tutiladi. Shu bilan bog'liq ravishda mashg'ulot stsenariysi mashg'ulotning biror (ehtimol ko'rilgan) variantini aks ettirishi lozim bo'ladi, uning realligi esa o'qituvchining talabalardagi boshlang'ich fikrlash qobiliyati darajasi haqidagi qay darajada bilimga ega bo'lishiga bog'liq. Shu bilan birga, hatto yaxshi ishlab chiqilgan stsenariy bo'lsa-da, seminarining borishida awal o'ylangan rejadan chetga chiqishlar bo'ladi. Chunki talabalarining individual xislatlari, bilimlarining darajasi va kengligi har xil bo'ladi. Shu tufayli o'qituvchi seminarini samarali o'tkazishi uchun mavzuga muvofiq material mazmunini o'zi yuksak darajada egallagan bo'lishi shart.

Seminar avvalida o`qituvchi tayyorlab kelgan savollari yoki vazifalaridan foydalangan holda, talabalarda seminarlarda, qatnashish uchun etarli bo`lgan bilimlarni yuzaga chiqaradi.

Bilimlarni yuzaga chiqarish, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo`yicha seminarlardagi usullar asosida, amalga oshiriladi So`ng yuzaga chiqarilgan bilimlar asosida o`qituvchi mashg`ulotda hal qilinadigan muammoni talabalarga bildiradi va uni ifodalab beradi. Avval boshdanoq qo`yilgan muammoning talabalar tomonidan qabul qilinishini ta'minlash uchun muammoni qo`yishda uni echish uchun urinib ko`rishni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu bilan o`qituvchi kutilayotgan echimni talabalar bilan tahlil qiladi, ularda ko`ringan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Muammoni echishdagi dastlabki urinish natijasida talabalar uni engilgina echish mumkin emasligini aniqlaydilar. Bunda muammoli vaziyat talabalar uchun muammoni echish usullarining keyingi izlanishini avj oldirish zarurligining ichki ruhiy asoslanishi bo`lib xizmat qiladi.

O`qituvchi muammoni echish usullarini izlashni tashkil etishga o`tar ekan, avvalo birinchi muammoni ifoda qiladi, so`ng muammoli savollarni qo`yadi va javoblarni muhokama qilib, talabalarining bu muammoni echish usulini izlashga, ya'ni birinchi oraliq xulosani qidirishga undaydi. So`ngra sbu tabiitda yaxlitligicha muammoni echish va xotima xulosalarni ifodalash bilan tugallanishi lozim bo`lgan keyingi muammolarning echilish usulini izlashni tashkil etadi.

O`qituvchi muammoni qo`yishda uning mazmunini oydinlashtiruvchi muammoli savollarni berishdan oldin muammoni to`lalgicha echishga urinishni tashkil etilganidek, talabalarining muammo qismlarini echishga urinishlarini tashkil etishi mumkin. Bu urinish muammoni echishda ikkinchi mashaqqatni vujudga keltiradi. Uning talabalar tomonidan anglab etilishi muammoning echilish usulini qidirishda faol ishtirok etishining qo`shimcha motivi bo`lishiga olib keladi.

Seminar mashg`ulotning eng muhim bosqichi hamda uning o`zagi muammoli savolga javob qidirishni tashkil etish hisoblanadi.

O`qituvchi muammoli savol qo`yib, unga javob olishi bilanoq to`g`ri va noto`g`ri javoblarni baholamasligi, balki talabalardan savollarga har tomonlama keng javob talab qilishi kerak. Agar talaba kutilgan muayyan javobni tayinli asoslay ohnasa, bu javobga xayrihoh bo`lgan boshqa talabalarni ham aniqlab, ularga birgalikda shu javobni asoslashni taklif etadi. Agar talabalar u yoki bu savolga turli javoblar taklif , o`qituvchi talabalarining javoblarni qiyoslashga qaratilgan fikrlashga urintirishi lozim bo`ladi. Bunday fikrlash ishi murakkab bo`lib, u barcha bildirilgan nuqtai nazarlarni tushunish, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, to`g`ri javobni qidirish maqsadida tanqidlarni hisobga olgan holda turli qarashlarni o`zaro nisbatlashni ko`zda tutadi.

Shunday qilib, muammoli savolga javob topishni qidirishni tashkil etish o`zida muntazam qo`yilgan qadamlar modulini birlashtiradi. Ular quyidagilan hal qilish tizimi ham kiradi. O`quv

jarayonida bunday texnologiyani joriy qilish qiziqishni uyg`otadi, aqlni rivojlantiradi, bilish qarshiliklarini engish uchun yo`l-yo`riqlar berishni talab qiladi. Shu bilan birga mantiqiy tadqiq qilishga yo`llaydi va uni bosqichlar bo`yicha o`rgatadi, tafakkurning nazariy uslublarini tarbiyalaydi.

Muammoli leksiyaning o`tkazishida o`quv axborotlari tuzilmasi shunday tasvirlanishi mumkin, ya'ni leksiya «O`zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi taraqqiyotining hozirgi zamon konsepsiyasi» kabi muammolarga bag`ishlanishi mumkin. Bu leksiyaning tashkil etishida muammoli vaziyat takliflar bo`yicha echilish usulini tanlash, qo`yilgan muammo echimi bo`yicha tanlangan usullarni muhokama qilish, yangi axborotni olib kirish tarzida yaratiladi.

Muammoli vaziyatni yaratish uchun talabalarga ikki nazariy qoida taklif etiladi: bu xalq ta'limini bashorat qilish va xalq ta'limi maqsadi. Ularga bu muammolardan birini tanlash yoki muammoli vaziyat aniqlab berishi lozim bo`lgan o`zlarining yangi nazariy qoidasini tuzish taklif etiladi.

Keyingi bosqichda tanlangan vazifani muhokama qilish tashkil etiladi, uning hal qilinish jarayoni kuzatiladi, axborotlar tahlil qilinadi va tanlangan echimning to`g`riligi tekshirib ko`riladi. Undan so`ng yangi nazariy nuqtai nazarni tuzishga o`tiladi.

Muammoli leksiya talabalarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo`lishini taqozo qiladi. U ilmiy tafakkur uslubini rivojlantiradi. Muammoli vazifalar o`zida operatsion-protsessual tarkiblarni birlashtiradi. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o`rganilayotgan ilmiy muammolarni nazariy jihatdan fikrlashga diqqatni jalb qiladi. Muammoli leksiya davomida talabalarda mavjud bo`lgan bilimlardan foydalaniladi, ularni yangi axborotlar bilan bog`liq ravishda yangilanishini amalga oshiradi.

Muammoli leksiya bilish faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, muammoli o`qitish, o`quv jarayonini tashkil etishning shunday shakli, unda o`qituvchi boshchiligida muammoli vaziyat va bu vaziyatning echilishidagi talabalarning samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi.

Muammoli o`qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko`nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o`stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Muammoli texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak bo`ladi:

- eng dolzarb, ahamiyatli vazifalarni tanlash;
- o`quv ishlarining barcha turlarida muammoli o`qitishning o`ziga xos xususiyatlarini belgilash;
- muammoli savolni qo`yish;
- qo`yilgan savollarga javob topish va asoslash bo`yicha talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;

- javoblarning tanqidiy tahlilini tashkil etish, ularning kuchli va kuchsiz jihatlarini aniqlash;
- kelishilgan mavqe (pozitsiya)ni ishlab chiqish — eng to'g'ri javobni konstruksiyalash maqsadida javoblarni o'zaro qiyos qilishni tashkil etish.

- keyingi muammoli savolni qo'yishga o'tish.

O'qituvchi tashkil etgan bunday mujassamlangan harakatlarni bajarish jarayonida talabalarning tafakkurlarida rivojlanish yuz beradi.

Talabalarga muammoli savollar qo'yishda muammoli savollarning uzluksizligini, ularning bajargan ijodiy ish natijalari bilan aloqasini ta'minlash zarur.

Umuman, talabalarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga bag'ishlangan seminar quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv muammosini echish bo'yicha ijodiy faoliyatda faol ishtirok etish uchun zarur bo'lgan bilimlarni yuzaga chiqarish;

2. Muammoga kirishish va uni ifodalash;

3. Talabalarning avval egallangan bilimlari negizida muammoni echishga urinishni tashkil etish;

4. Muammoni echish bo'yicha talabalarning keng ijodiy faoliyatini tashkil etish (muammoni va muammoli savolni qo'yish, muammoli savolga javob topishni tashkil etish, oraliq va yakuniy xulosalarni ifodalash);

5. Mashg'ulotga yakun yasash.

Muammoli o'qitish sharoitidagi o'quv jarayonining mustahkam asosi talabalarni mustaqil fikrlashga muntazam tayyorlash, shaxsiy fazilat sifatida ulardagi baholanadigan mustaqillikni shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Bu o'qitishdagi mustaqil ishning alohida muhim ahamiyati, uni o'quv yurti pedagogik tizimi markaziga qo'yilishining qonuniyligi, uning o'z tizimi bo'lishi zaruriyatini tashkil etish demakdir. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, bu masala hanuzgacha amaliyotda to'la hal qilingan emas.

Amaliy mashg'ulotlar bir necha bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda bilimlar nazorat qilinadiki, ularning mavjudligi mashg'ulotlarda ishlab chiqiladigan vazifalarning echilish metodikasini tushunishga yordam beradi. O'qituvchi bilimlar o'zlashtirilishining nazoratini o'tkazib bo'lgach, talabalarni muayyan toifadagi vazifalarni echish metodikasi bilan tanishtiradi. Bu jarayonda o'qituvchi metodika tarkibiga kiradigan barcha harakatlarni talabalarga tushuntirishi lozim. O'rganilgan metodikaga muvofiq ravishda barcha harakatlarni amaliy egallashni tashkil etish uchun o'qituvchi talabalarga individual topshiriqlar beradi. Shuningdek, bu topshiriqlarni bajarish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni o'z vaqtida engish maqsadida o'qituvchi talabalarga yo'l-yo'riqlar beradi. Bunda o'qituvchining vazifasi har bir talabaning o'z topshirig'ini ongli ravishda bajarishini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Topshiriqni bajarish yakunlangach, o`qituvchi uning borishini va talabalar ishlari natijalarini tahlil qiladi, guruh bilan birgalikdatipik qiyinchiliklarni muhokama qiladi, ularni engish usullarini ko`rsatib beradi va shakllangan malakalarni kelgusida takomillashtirish bo`yicha vazifalar qo`yadi.

Shunday qilib, algoritmik tipdagi amaliy mashg`ulotlarni o`tkazish quyidagi bosqichlarni ko`zda tutadi:

1. Muayyan toifadagi vazifalarni echish metodikasini tushunib olishga yordam beradigan bilimlar o`zlashtirilishini nazorat qilish;
2. O`zlashtirilish obekti bo`lgan vazifalarning echilish metodikasi bilan tanishish;
3. Konkret vazifa materiallari asosida ctrganilgan metodikaga muvofiq ravishda talabalarning individual faoliyatini tashkil etish;
4. Tipik qiyinchiliklar va ulami engish yo`llarini guruh bo`lib muhokama qilishni tashkil etishning talabalar tomonidan bajarilib borishi va natijalarini tahlil qilish, kelgusida egallanishi mumkin bo`lgan malakalarni takomillashtirish bo`yicha vazifa qo`yish.

Muammoli tipdagi amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi:

1. Muayyan toifadagi vazifalarning echilish metodikasini ishlab chiqish uchun zarur bo`lgan bilimlarning talabalar tomonidan o`zlashtirilishini nazorat qilish;
2. echilish metodikasini ishlab chiqishni ketzda tutgan yangi vazifalarni qo`yish;
3. qo`yilgan vazifaning echilish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;
4. Talabalar ishlarining natijalarini tahlil qilish, metodikani ishlab chiqish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni guruh bo`lib muhokama qilish, uning sabablari va uni engish usullarini aniqlash.

Amaliy vazifa va muammolarni echishdagi talabalarning umumiy faoliyatini tashkil etishning samarali shakli tadbirkorlik o`yinlaridir. Ma'lumki, tadbirkorlik o`yinlari talabalarning kollektiv faoliyatini tashkil etishni bildiradi. Bu jarayonda uning bo`lg`usi kasbiy faoliyatining ashyoviy va ijtimoiy mazmuni yaratiladi.

Tadbirkorlik o`yinlarining pedagogik samaradorligi natijasi ko`p jihatlardan o`yinning ssenariysini ishlab chiqish va uning tayyorlanish sifati bilan belgilanadi. Tadbirkorlik o`yinlari talabani amaliy tayyorlashning pedagogik vazifalari tizimini echishga qaratilgan bo`lishi lozim. Bularga birinchi navbatda: real kasbiy faoliyat sharoitida qo`llanadigan amaliy malaka va ko`nikmalarni shakllantirish; amaliy vaziyatlar va shunga mos harakat usullarini ishlab chiqishni tahlil qiladigan fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish guruh (jamo) faoliyatida faol ishtirok etishini ta'minlaydigan qobiliyatlarni shakllantirish taalluqlidir.

O`yinning mazmuni va tuzilmasi shunday shakllanishi va shunday ruzilishi kerakki, unda shunga mos malaka va qobiliyatlar har bir ishtirokchida butun o`yin davomida shakllansin. O`yinning pedagogik vazifalari ssenariyda aniq aks etishi shart.

O`quv vaziyatini modellashtirish bo`yicha tadbirkorlik o`yinlarini tayyorlashda murakkab amaliy vazifalarni (muammolarni) echishga qaratilgan kasbiy faoliyat mazmuni tanlanadi. Bunda mos vazifalarni tahlil qilib chiqish, uni echishda ishtirok etadigan rahbarlar va ijrochilarni, ularning vazifalari, o`zaro munosabatlari tartibi, vazifani samarali echishning ibtidosi bosqichlari va me`yorlari, unga kerak bo`ladigan texnik vositalar, me`yoriy, ehtiyoj (spravochnik), metodik va boshqa manbalarni aniqlash zarur.

O`quv jarayonini takomillashtirish metodlari muammoli o`qitish jarayonida samaradorligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ulardan talaba ijodiy shaxsni — bo`lg`usi mutaxassisni shakllantirish nuqtai nazardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday o`qitishda talabalarning bilish mustaqilligini shakllantirish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega, chunki u talabalarda bilimga bo`lgan barqaror qiziqishning shakllanganligini, tashabbus va mustaqil faoliyatning muntazamligini, muayyan aqliy harakatlar va aqliy sifatlar tizimini ko`zda tutadi.

Ma'lumki, bilish talabalarning tushunishi uchun bo`lgan aniq fan sathida boshlanar va bu bosqichga uning rivojlanishi, qobiliyati mos kelishi, tabiat jarayonlari va hodisalarining ichki mohiyati va haqiqiy mazmuniga etish va shu tariqa asl ilmiy bilimlar o`zlashtirilgan ekan, bu o`rinda o`qitishning faol, muammoli-ijodiy metodlarini qo`llash zarur. Vazifa ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o`z-o`zidan hal bo`lmaydi. Uning echilishi tafakkurni maxsus mashq qildirishga jalb etadi. Shu ma'noda gap o`quv materialini o`rganishning muayyan obrazi, tashkiliy, pedagogik maqsadga muvofiqligi jarayoni, fikrlashning faol taraqqiy etib borishi, bilish faolligi va talabalarning mustaqilligi haqida boradi.

Demak, muammoli o`qitish bu o`qitishning pedagogik texnologiyasi bo`lib, o`zining mazmuni va tuzilmasi bo`yicha o`qituvchi va talabaning ijodiy jarayonlarini sintezlaydi.

Muammoli o`qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o`quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko`chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo`ladi.

Ijodiy o`quv faoliyati muammoli o`qitishning asosiy qoidasini saqlagan holda — ma'lum darajada harakatlarga erkinlik berish va bu harakatlarni bilish jarayonining butun tuzilmasi tizimida tartibga tushirish bilan boshqariladi.

Muammoli o`qitishdan foydalangan holdagina talabalarda o`quv muammolari va kasbiy vazifalarini echishda ilmiy tekshirish jihatdan yondashuvni tarbiyalash, mustaqil bilish malakasi va metodlarini shakllantirish murrkin. Muammoli o`qitishni qo`llash, bilishni tushunishni

shakllantirishga yordam beradi, pedagogik ijod va kasbiy mahoratni rivojlantirishga psixologik va kasbiy tayyorlikni shakllantiradi.

Muammoli o`qitish o`quv axborotlarining maxsus tuzilmasini ishlab chiqishni taqqazo qiladi. Muammoli leksiya texnologiyasi savollar, gipotezalar tizimi, uning echimi, nazorat va tuzatuvlarni amalga oshirish tizimi orqali mazmunni muntazam ochib borishni ko`zda tutadi.

Shuningdek, muammoli leksiyada muammoli vaziyat va uni muammoli hal qiliish tizimi ham kiradi. O`quv jarayonida bunday texnologiyani joriy qilish qiziqishni uyg`otadi, aqlni rivojlantiradi, bilish qarshiliklarini engish uchun yo`l-yo`riqlar berishni talab qiladi. Shu bilan birga mantiqiy tadqiq qilishga yo`llaydi va uni bosqichlar bo`vicha o`rgatadi, tafakkuming nazariy uslublarini tarbiyalaydi.

Muammoli leksiyani o`tkazishda o`quv axborotlari tuzilmasi shunday tasvirlanishi mumkin, ya'ni leksiya «O`zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi taraqqiyotining hozirgi zamon konsepsiyasi» kabi muammolarga bag`ishlanishi mumkin. Bu leksiyani tashkil etishda muammoli vaziyat takliflar bo`yicha echilish usulini tanlash, qo`yilgan muammo echimi bo`yicha tanlangan usullarni muhokama qilish, yangi axborotni olib kirish tarzida yaratiladi.

Muammoli vaziyatni yaratish uchun talabalarga ikki nazariy qoida taklif etiladi: bu xalq ta'limini bashorat qilish va xalq ta'limi maqsadi. Ularga bu muammolardan birini tanlash yoki muammoli vaziyat aniqlab berishi lozim bo`lgan o`zlarining yangi nazariy qoidasini tuzish taklif etiladi.

Keyingi bosqichda tanlangan vazifani muhokama qilish tashkil etiladi, uning hal qilinish jarayoni kuzatiladi, axborotlar tahlil qilinadi va tanlangan echimning to`g`riligi tekshirib ko`riladi. Undan so`ng yangi nazariy nuqtai nazarni tuzishga o`tiladi.

Muammoli leksiya talabalarining faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo`lishini taqqazo qiladi. U ilmiy tafakkur uslubini rivojlantiradi. Muammoli vazifalar o`zida operasion-prosessual tarkiblarni birlashtiradi. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o`rganilayotgan ilmiy muammolarni nazariy jihatdan fikrlashga diqqatni jalb qiladi. Muammoli leksiya davomidatalabalarda mavjud bo`lgan bilimlardan foydalaniladi, ularni yangi axborotlar bilan bog`liq ravishda yangilanishini amalga oshiradi.

Muammoli leksiya bilish faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, muammoli o`qitish, o`quv jarayonini tashkil etishning shunday shakli, unda o`qituvchi boshchiligida muammoli vaziyat va bu vaziyatning echilishidagi talabalarining samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi.

Muammoli o`qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko`nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o`stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Muammoli texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak bo`ladi:

- eng dolzarb, ahamiyatli vazifalarni tanlash;
- (o`quv ishlarining barcha turlarida muammoli o`qitishning o`ziga xos xususiyatlarini belgilash;
- muammoli o`qitishning eng maqbul tizimini ishlab chiqish, darslik, o`quv va metodik qo`llanmalar, tavsiyanomalar yaratish;
- shaxsiy yondashuv va o`qituvchi mahorati.

II BOB. LINGVISTIK O`YIN-TOPSHIRIQLAR ONA TILI DARSLARINING QIZIQARLI VA SIFATLI O`TISHINI TA'MINLAYDIGAN VOSITA SIFATIDA

2.1. Lingvistik o`yin-topshiriqlarning mazmun mohiyati

O`zbek tili darslarida o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladigan nostandart o`quv topshiriqlarining bir turi grammatik o`yin-topshiriqlardir. Topshiriqning bu turi o`quvchidan izlanishni, bilimdonlikni, topshiriqni va tezkorlikni talab qiladi. O`yin-topshiriqlar ona tili darsining qiziqarli o`tishini ta'minlaydi.

Metodik adabiyotlarda o`yin-topshiriqlar, asosan ta'lim metodi sifatida qaraladi. Biz o`yin-topshiriqlarga ta'lim mazmunining ajralmas qismi, o`qitish metodi sifatida qaraymiz. Avvalo, o`yin-topshiriqlarda o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan ma'lumotlar mazmuni mujassamlashganligini hisobga oladigan bo`lsak, unga ta'lim mazmunining muhim bir bo`lagi sifatida qarash ma'qul ko`rinadi. Agar o`yin-topshiriqning bilim berishga qaratilganligini hisobga olinadigan bo`lsa, ularga ta'lim metodi sifatida qarash mumkin. U o`qituvchidan ta'sir etishni va o`quvchidan faoliyat ko`rsatishni talab etadi. O`quvchilar topshiriqning ijrochisi, o`qituvchi esa o`yinning sudyasi sifatida namoyon bo`ladi.

O`zbek tili o`qitish metodikasida o`yin-topshiriqlar va ulardan foydalanish metodikasi etarli ishlanmagan muammolardir. Biz bunday topshiriqlarni na darsliklarda va na o`qituvchilar ish jarayonida uchrata olamiz. Shubhasiz o`qituvchilarni nostandart topshiriqlarning bu ko`rinishi bilan to`la qurollantirish ta'lim sifatini yaxshilashga, o`quvchilarning qiziqishini oshirishga va ularning faolligini rivojlantirishga samarali ta'sir ko`rsatadi.

Ona tilidan o`yin-topshiriqlar ham boshqa o`yin-topshiriqlar singari til materiallari asosida tashkil etiladi. Bu topshiriqlar o`quvchilardan logik-lingvistik operatsiyalarning bajarilishni tashkil etadi. O`yin-topshiriqlarning o`ziga xos xususiyati shundaki, u musobaqa tipida tashkil etiladi. Natija esa yakunlanib, o`quvchilarga yoki butun bir guruhga baholar beriladi. Bu, shubhasiz, topshiriqni bajarishga bo`lgan ishtiyoqni orttiradi.

O`yin-topshiriqlarni murakkablik darajasiga qarab, uch guruhga bo`lish mumkin:

1. qayta xotirlash xarakteridagi o`yin-topshiriqlar.
2. qisman izlanuvchanlik xarakteridagi o`yin-topshiriqlar.
3. Ijodiy xarakterdagi o`yin-topshiriqlar.

Bu o`yin-topshiriqlarning har biri o`quvchilar faoliyatini faollashtirishda qator imkoniyatlarga ega.

2.2 . Qayta xotirlash xarakteridagi o`yin-topshiriqlar.

Bu o`yin-topshiriqlardan ko`proq bilimlarni mustahkamlash va takrorlash jarayonida foydalanamiz. O`qituvchi o`rganilgan til materialini o`quvchilar xotirasida uzoq saqlash,

takrorlash, mustahkamlash maqsadida reproduktiv o`yin-topshiriqlaridan foydalaniladi. Masalan, «Turdosh va atoqli otlar» mavzusiga oid materiallarni takrorlash maqsadida «qaysi guruh g`olib?» o`yin-topshirig`idan foydalansa bo`ladi.

O`qituvchi doskada kitob, gazeta, jurnal, surat, kinofilm, spektakl, adabiy va musiqali asarlarning nomlarini alohida –alohida yozib qo`yadi. Sinfni 7 guruhga bo`lib, ulardan shu otlarga misollar topib, doskaga yozish talab etiladi. Guruxning har bir a'zosi o`ziga qarashli otga bittadan misol yozib, bo`rni guruxdoshiga uzatadi. Misollarni tez va to`g`ri yozgan komanda g`olib sanaladi. Shunday o`yin-topshiriqdan istagan bir mavzuni o`tishda foydalansa bo`ladi. O`qituvchi sifat darajalarini o`tgandan keyin sinfni uch guruxga bo`lib, har bir guruxga sifatning ma'lum bir darajasiga misollar topishni topshirishi mumkin.

Takrorlash darslarida tashkil etiladigan o`yinlarning xarakterli xususiyati shundaki, o`qituvchi ko`proq qoidalarni qamrab olishga harakat qiladi. Ana shunday maqsadda «Bu so`z bizniki» o`yin-topshirig`idan foydalansa bo`ladi. Masalan, o`qituvchi so`z turkumlari yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida ular e'tiboriga so`zlar yoki mavzuni havola etib, har bir guruhga shu so`zlar yoki matndan ma'lum bir so`z turkumini ajratib yozishni topshiradi.

Matn namunasi:

Ulug`bek Samarqand atrofida yurganida, yo`l yoqasida yotgan bir burda nonni ko`rib qoladida, otdan tushib, uni qo`yniga soladi. Uning yonidagilardan biri: «Sultonim, nega bizga buyurmay, o`zingiz otdan tushdingiz?»-deb so`raganlarida Ulug`bek: «Nonni dastlab men ko`rdim, uni erdan olishni birovga buyurish nonga nisbatan mening hurmatsizligim bo`ladi». Non oldida mening podsholigim, martabam, hechdir»,-deb javob bergan. (Sharq manbalaridan) O`qituvchi matnni oldindan ko`chma doskada yozib qo`yishi mumkin. O`ziga tegishli so`z turkumini to`g`ri va tez ajratib yozgan guruh g`olib sanaladi.

2.3. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi interpretatsion o`yin-topshiriqlar

Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi interpretatsion o`yin-topshiriqlar o`quvchilarda qisman izlanishni, ma'lum yordam asosida bilimlarni yangi vaziyatda qo`llashni talab etadi. Yordamni esa o`quvchi-o`qituvchilardan, darsliklardan, musobaqadosh o`quvchi yoki guruhdan olishi mumkin. Masalan, «So`zlar bizdan, matn tuzish sendan» o`yin-topshirig`ida o`qituvchi sinfdagi o`quvchilariga tayanch so`z va so`z birikmalari berib, ular yordamida bog`li tekst tuzishni topshiradi: tez va mazmunli matn tuzgan o`quvchilar g`olib sanaladi.

«Hikoyani men boshladim, sen davom ettir» o`yini ham qisman izlanuvchanlik xarakteridagi o`yin-topshiriqlardandir. O`qituvchi sinfni ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruhdan bir o`quvchi ma'lum talab asosida hikoyani boshlab beradi, ikkinchi guruhdagi o`quvchi esa shu hikoyani davom ettiradi.

«O`z tengini top?» o`yin-topshirig`i orqali ham o`quvchilarning qisman izlanuvchanlik faoliyatini uyg`unlashtirish mumkin. O`qituvchi o`zakdosh so`zlar haqida ma'lumot berayotganda sinfni 2 guruhga bo`lib, har bir guruhga 3-4 so`z yordamida o`zakdosh so`zlar hosil qilishni topshiradi. Masalan, 1-guruh ulug`, unum, shaxs o`zaklari, 2-guruh esa ashula, mazmun, hozir so`zlari yordamida boshqa o`zakdosh so`zlar hosil qiladilar. Guruhlar topgan so`zlarini doskada yozib borishadi. O`yin davomida butun guruh a'zolarining faolligi ham hisobga olinadi. Topshiriqni tez va sifatli bajargan guruh g`olib sanaladi.

Sinonim so`zlar haqida ma'lumot berayotganda o`qituvchi guruhlarga bosh so`zni berib, shu so`zlarning sinonimlarini topish (sinonimik qator hosil qilish)ni topshiradi.

Guruh a'zolari qo`l ko`tarib aytgan sinonim so`zlarni shu guruhdan bir o`quvchi doskaga yozib boradi.

O`yin-topishmoq namunasi

Quyidagi so`zlar yordamida sinonimik qator hosil qiling.

1-guruh

1. Azamat,
2. Aziz,
3. Gulshan,

2-guruh

1. Adolatli,
2. Rost,
3. Unumli,

Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi o`yin-topshiriqlardan yangi bilim berishda, uni mustahkamlashda unumli foydalansa bo`ladi.

2.4. Ijodiy xarakterdagi o`yin-topshiriqlar

Ijodiy xarakterdagi o`yin-topshiriqlar o`quvchilardan egallagan lingvistik bilim, ko`nikma va malakalarni yangi vaziyatda qo`llash, ijodiy faoliyat ko`rsatishni talab etadi. Masalan, «Ijodkor» o`yini ana shunday o`yin-topshiriqlardir. O`qituvchi «Olmosh haqida ma'lumot» mavzusini o`tar ekan, 1-guruhga ot so`z turkumi ega bo`lgan gaplarga misollar aytishni, 2-guruhga esa shu gaplardagi egani olmosh bilan almashtirib, fikrni davom ettirishni topshiradi.

Namuna

1-guruh
Shabada qo`zg`aldi.
Ona ulug` zot.

2-guruh
U jonga orom berdi.
Bu buyuk zot oldida qarzdormiz.

Onalar ishlab chiqarish novatorlaridir.	Ularning mehnatidan vatanimiz gullab -yashnamoqda.
Paxta-bebaho boyligimiz.	Undan ko'pgina mahsulotlar olinadi.
Paxtakor lochinlarining mehnati bilan faxrlanamiz.	Ular oq oltindan osmon o'par xirmonlar bunyod etmoqdalar.

Agar birinchi komanda ot bilan ifodalangan ega ishtirokida gap tuzolmasa, 2-guruh a'zolari o'zlari gap tuzib, uni olmosh bilan almashtiradi va fikrni davom ettiradi. O'yin oxirida g'olib guruh belgilanadi.

«O'z so'zingni top» o'yinidan ham ijodiy faoliyatni rivojlantirish maqsadida foydalansa bo'ladi. O'qituvchi rasmni doskaga osib qo'yib, har ikkala guruhga ham bog'li matn tuzishni topshiradi. O'quvchilar o'yin-topshiriqni yozma yoki og'zaki xarakterda bajarishlari mumkin. Topshiriq bajarilgach, qur'a tashlash asosida har ikkala guruhdan bittadan o'quvchi tuzgan matnni so'zlab yoki o'qib beradi. O'quvchi tuzgan matnning mazmundorligi, grammatik talabni hisobga olishi, fikrni bayon qilishda o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan foydalanishga qarab, gurhlarning o'rni belgilanadi. Bu o'yinning xarakterli xususiyati shundan iboratki, u o'quvchidan guruh sharafi uchun kurashishga kuchli ishtiyoqni vujudga keltiradi.

O'yin-topshiriqlar, ayniqsa, xatolar oldini olish va bartaraf etishga o'quvchilar faoliyatini faollashtirishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. O'quvchi yozilishi murakkab yoki o'quvchilarning yozma ishlarida yo'l qo'yilgan tipik xatolar asosida lug'at diktanti tuzib, uni oldindan magnit lentasiga yozib oladi va dars jarayonida har ikkala guruhga ham magnitofon orqali diktovka qilinayotgan so'zlarni yozib berishni topshiradi. O'zi o'quvchilarning ishini diqqat bilan kuzatib, guruhlardan so'zlarni xatosiz yozgan o'quvchilar sonini aniqlaydi. Xatoning kamligiga qarab, gurhlar o'rni belgilanadi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning tipik xatolarini bartaraf etishda «Kim bo'rni uzoq ushlaydi?» o'yinidan ham unumli foydalansa bo'ladi. O'qituvchi yozma ishda xato yozilgan so'zni doskaga yozib qo'yadi. O'quvchilar bu xatoni tuzatishlari, uning sbabini tushuntirishlari, o'xshash misollar topishlari lozim. qur'a tashlash asosida bo'r avval ma'lum bir guruhga bo'linadi. Doskaga chiqqan o'quvchi o'yin-topshiriqni quyidagi tartibda bajaradi:

O'quvchi xato yozilgan so'z va so'z birikmasini to'g'rilab yozadi, unga aloqador bo'lgan qoida va harfni ko'rsatadi: o'xshash misollar topadi. Xatoga yo'l qo'ygan o'quvchi bo'rni ikkinchi o'quvchiga uzatishga majbur. Ikkinchi guruh o'yinni davom ettiradi. Bo'r qaysi guruhda uzoq saqlansa, o'sha guruh g'olib sanaladi.

Ona tili darslarida turli lug'atlar bilan ishlashga oid o'yin-topshiriqlar ham o'quvchilarga katta qiziqish uyg'otadi. O'qituvchi o'zbek tilining «Imlo lug'ati», o'zbekcha-ruscha tarjima lug'atlari, morfem lug'at, sinonim va antonimlarning izohli lug'atlari, paronim so'zlar lug'ati

vositasida turli xildagi o`yin-topshiriqlarni tashkil etishi mumkin. Masalan, «Kim tez topadi?» o`yini o`quvchilarda lug`at bilan ishlash malakalarini shakllantiradi. O`qituvchi imlosi qiyin bo`lgan 3-4 so`zni doskaga yozib qo`yadi. Va o`quvchilarga shu so`zlarni imlo lug`atidan topishni topshiradi. Barcha so`zlarni imlo lug`atidan topib, betini aniqlagan o`quvchi g`olib sanaladi.

O`quvchining yozgani	Yozilishi kerak	Nega shunday yozilishi kerak	O`xshash misollar
Maktab, sabab, maqsat.	Maktab, sabab, maqsad	So`zning oxiridagi jarangli «b» undoshi o`rniga uning jarangsiz jufti «p» talaffuz qilinadi, ammo «b» yoziladi.	Talab, asab, tolib.
Ma'mo`r, memor, alo, mano, Rano	Ma'mur, me'mor, a'lo, ma'no, Ra'no	So`zlarni to`g`ri, o`z o`rnida talaffuz etish kerak. Tutuq belgisi bu ayirish belgisidir. Agar tutuq belgisi tushib qolsa, so`zning ma'nosi ham o`zgaradi.	Fe'l, sa'va, ta'na, sur'at, jur'at, tal'at.

«Imlo lug`ati»dan ma'lum grammatik qoida talabiga muvofiq misollar topish, ma'lum bir qoidaga taalluqli so`zlarni to`plashga oid o`yin-topshiriqlardan foydalanish ham o`quvchilarning til materiallariga bo`lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Sinonimik qator hosil qilish, so`zlarning qarma-qarshi ma'nolarini topish, paronim so`zlarning ma'no nozikligini anglash, o`zakdosh so`zlar yasash, o`zbek tilidagi so`zlarning rus tilidagi tarjimasini topishga oid o`yin-topshiriqlar ham ona tili darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili darslarida diqqat, iroda va ziyraklikni o`stirishga qaratilgan o`yin-topshiriqlardan ham foydalanish zarur. Bunday o`yinlar ko`proq oddiy va zavqlantiruvchi xarakterda bo`ladi. Masalan, kuzatish diqqatini o`stiruvchi o`yinlardan biri «So`zlar tartibini eslab qol» o`yini. O`qituvchi ko`chma doskaga oldindan o`ylab qo`yilgan 8-10 so`zni yozib qo`yadi. O`quvchilar so`zlarning nomi va joylashish tartibini eslab qo`llashi kerak. Ko`chma doska olib qo`yilgan, o`quvchi esida qolgan so`zlarni daftariga yozadi. So`zlarni o`sha tartibda to`liq yozgan o`quvchi g`olib sanaladi. Bu o`yinni differentsiallashtirish ham mumkin. O`zlashtirish bo`sh o`quvchilarga so`zlar miqdorini kamaytirish uni bajarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

«Predmetlar nomini eslab qol» o`yini ham o`quvchilarning kuzatuvchanligini o`stiradi. O`qituvchi predmetlarni yoki uning rasmini ko`rsatib, so`ngra ulardan shu predmetlar nomini yozishni talab qiladi.

O`qituvchi tomonidan ko`rsatilgan barcha predmetlarning nomini yozgan o`quvchi g`olib bo`ladi.

O`quvchilarning xotirasini o`stirishga qaratilgan o`yinlardan biri «O`z xotirangni sina» o`yinidir. O`qituvchi magnitofon lentasiga yozib olingan so`zlarni oldin eshittirib, so`ngra uni daftarga yozishni topshiradi, aytilgan so`zlarni yodda saqlab qolib, daftarga yozgan o`quvchilar g`olib sanaladi.

O`quvchilarning topqirligi va ziyoratligini oshirishga xizmat qiladigan o`yinlardan biri «O`ylab top» o`yinidir. O`quvchilarga ma'lum bir so`zni o`qib, uning har bir harfidan joy nomini tuzish topshiriladi. Masalan, mehnat, mamlakat kabi so`zlarning har bir harfi ishtirokida joy nomlari hosil qilishadi. (Mehnat- Marg`ilon, Eron, Hindiston, Namangan, Andijon, Toshkent; mamlakat-Madina, Asaka, Marg`ilon, Latifa, Andijon, kabi).

Ona tilining har bir bo`limi shu bo`lim talablariga muvofiq tushadigan o`yin-topshiriqlarni taqozo etadi. Masalan, «Fonetika»ni o`tishda o`zbek tili tovush sistemasining xususiyatlarini ko`rsatish, o`quvchilarning adabiy talaffuz normalarini o`zlashtirishlariga yordam beradigan o`yin-topshiriqlardan ko`proq foydalanishga to`g`ri keladi. Bu bo`limga oid o`yin-topshiriqlardan foydalanish natijasida o`quvchilar so`zdagi tovushlarni ajrata olishga, tovush bilan harfni farqlashga, ularni aralashtirmaslikka o`rganishlari zarur.

«So`z tarkibi»ni o`tishda esa so`zning o`zagi va qo`shimchasi, o`zakdosh so`zlar, negiz, qo`shimchalarning turlari kabi muhim masalalarni o`z ichiga olgan o`yin-topshiriqlardan foydalaniladi.

Respublikamizda hammaning hurmatiga sazovor bo`lgan o`qituvchilardan Farg`ona viloyati O`zbekiston tumanidagi 18-maktab o`qituvchisi M.Eshmatov «So`z tarkibi»ni o`tishda «Domino», «Yo`qolgan jangchini toping» o`yinlaridan foydalangan.

«Domino» o`yini. 1-guruh har bir negizning oxiri qanday harf bilan tugasa, 2-guruh shu harf bilan boshlanadigan negizni topib davom ettirishi kerak. O`qituvchining har ikkala guruhga beriladigan so`zlari o`quchidagi ijobiy xususiyatlarni ifodalashi lozim. (Masalan, intizomli, ibratli, izzatli, idrokli, ishchan, namunali, aqlli kabi). Tanlangan so`zlarda o`zak va negiz aniqlanadi. O`yinni davom ettirolmagan guruh engilgan sanaladi.

«Yo`qolgan jangchini top» o`yinida esa o`qituvchi so`z yasovchi qo`shimchalarni berib, nuqtalar o`rniga «Yo`qolgan jangchi»-o`zakni topib qo`yishni topshiradi. Musobaqa 3-4 o`quvchi o`rtasida o`tkazilishi mumkin.

Sinfdagi qolgan o`quvchilar diqqat bilan o`yinni kuzatadilar. Doskaga o`quvchi taklif etiladi.

.....chi,kor,la,li, ...-zor, no-.....

ba-....., be-.....,lik,-iston,-li.

«Soʻz tarkibi»ni oʻtishda oʻqituvchi «Soʻz guldastasini kim tez yasaydi?» oʻyinidan foydalanishi mumkin. Soʻzning oʻzagini berib, oʻquvchilardan shu oʻzakka qoʻshimcha qoʻshish natijasida oʻzakdosh soʻzlar hosil qilish topshiriladi.

Masalan,

-li	-li
-la	qum -lik
gul -zor	-loq
-iston	
-siz	

Ma'lum bir soʻz yasovchi qoʻshimchani berib, shu soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida soʻzlar guldastasi yasashni topshirsa ham boʻladi.

Masalan,

_____ -dosh

«Soʻz tarkibi»ni oʻrganishda «Soʻz operatsiyasi» oʻyinidan ham foydalanish mumkin. Masalan, oʻqituvchisi quyidagi jadvalni oʻquvchilar daftariga sizdirib, berilgan soʻzlarni boʻlaklarga boʻlish va uning har birini oʻz oʻrniga qoʻyishni talab qiladi.

Soʻz lar	Oʻz ak	Negiz	Soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimcha	
			Soʻz yasovchi qoʻshimcha	Turlovchi qoʻshimcha

Shunday qilib, dasturning har bir boʻlimi muayyan oʻyin-topshiriqlarni talab etadi. Bu oʻyin-topshiriqning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqadi. Shuning uchun oʻqituvchi darsga tayyorlanayotganda darsning maqsadida muvofiq keladigan oʻyin-topshiriqlarni tanlashi lozim. Darsga tayyorlanishda oʻqituvchi oʻyin-topshiriqning sonini, uning bajarishga sarflanadigan vaqtni ham aniq belgilab olishi kerak. Darsda oʻyin-topshiriqlarning sonini koʻpaytirish yaxshi natija bermaydi. Oʻqituvchi oʻyin-topshiriqlarni tanlashda oʻquvchilarning yaxshi va bilim saviyasini hisobga olishi lozim. Oʻyin-topshiriqlarning natijasini hisobga olish uning samaradorligini taʼminlovchi asosiy talabdir. Natijani hisobga olishning yoʻllari juda koʻp. Ayniqsa, har bir toʻgʻri bajarilgan operatsiya uchun ball berish, xatoga yoʻl qoʻygan oʻquvchilar yoki guruhning ballarini kamaytirish, toʻgʻri javoblarni doskaga yozib borish oʻyin-topshiriq natijasini hisobga olishning samarali usullaridir. Oʻqituvchi oʻquvchilar tomonidan yoʻl qoʻyilgan xatolarni oʻyin davomida tuzatishi qiyin albatta. Shuning uchun oʻqituvchi oʻyin oxirida oʻquvchilar tomonidan yoʻl qoʻyilgan xatolarni izohlashi, uni bartaraf etish choralari koʻrishi lozim. Oʻyin-topshiriqlar formasiga koʻra yozma yoki ogʻzaki xarakterda boʻlishi

mumkin. O`quvchilarda orfografik va punktuatsion malakalarini shakllantirish uchun ko`proq yozma xarakterdagi o`yin-topshiriqlardan foydalanishga to`g`ri keladi. Nazariy xarakterdagi o`yin-topshiriqlarni bajarishda esa ko`proq og`zaki usul yaxshi natija beradi. Ma'lum bir orfogramma uchun xos bo`lgan qoidani eslash, til hodisalarini kuzatish natijasida xulosalar chiqarishga oid o`yin-topshiriqlar asosan, og`zaki formadagi aqliy faoliyatni talab etadi. Shunday qilib, o`yin-topshiriqlar o`quvchilarning til materiallariga bo`lgan qiziqishini ko`chaytirish, tilning murakkab hodisalarini ongli o`zlashtirish o`quvchilarini birgalashib jamoa faoliyat ko`rsatishlarini ta'minlash ularda bilimdonlik, topqirlik va tezkorlikni tarbiyalashga katta yordam ko`rsatadi.

Topishmoqlar ham o`quv topshiriqlarining bir turidir. O`quvchilar faoliyatini faollashtirishda ularning imkoniyatlari katta. Topishmoqlar o`quvchilarda til tezligini oshiradi. Topshiriqlar mazmuniga yashiringan noma'lumlik o`quvchilarning mantiqiy tafakkurini oshiradi.

Topishmoqlar ham o`quv-topshiriqlarning singrai o`quvchilarning o`quv imkoniyatlariga mos bo`lishi, o`rganliiyotgan mavzu yoki bo`limning xarakter xususiyatlarini hisobga olishi lozim. O`quvchilarning so`z boyligini oshirish, nutqini rivojlantirishga qaratilgan topishmoqlar ona tili darslari samaradorligini oshirishda muhim rol o`ynaydi.

1-topishmoq.

To`g`ri to`rtburchakda 6 ta harf joylashtirilgan. Shu harflar ishtirokida nechta so`z yasay olasiz? Soat strelkasi bo`ylab va teskari o`qish mumkin. To`g`ri to`rtburchakda 11 ta so`z bor.

U	O`	q
Yo	Sh	I

Javob: quyidagi so`zlarni o`qish mumkin: yo`q, oq, o`qi, o`qish, ish, yosh, yoy, oy, qish, yoshi.

2-topishmoq.

Nuqtalar o`rniga faqat bitta harf yozish mumkin. Yozgan harfingiz yangi so`z hosil qilsin.

...il, ...il, ...il, ...il, ...il, ...il

...il, ...il, ...il, ...ol, ...ol, ...ol,

...ol, ...ol, ...ol, ...ol, ...ol, ...ol.

3-topishmoq.

Odam kabi so`zda ham, Bo`lar qator qarindosh,

Gar safingga chorlasang, Safing to`ladi, safdosh.

Top-chi safdoshlaring kim?

Javob: o`zakdosh so`zlar.

Topshimoqlardan darsning istagan bosqichida va istagan bo`limini o`rganishda foydalansa bo`ladi. Ular ona tili dasrlarida faollikni muvafaqqiyatli amalga oshiradigan vositalardan biri sanaladi.

III BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA GRAMMATIK O'YINLARNI O'TKAZISHNING METODIK USULLARI

3.1. Savod o'rgatish darslarida o'yin xarakterdagi mashg'ulotlardan foydalanish

O'yin shunday narsaki, undan hamma rohatlanadi. Shuning uchun bo'sh bo'ldi deguncha bola u yoqda tursin, kattalar ham o'zlarini o'yinga uradilar. Bola-o'z nomi bola. Uni o'ynagan paytda o'yindan ajratib bo'lmaydi. U ishlayotib ham o'ynaydi. Shunday ekan, biz bolalarga o'z ta'sirimizni o'yin orqali o'tkazsak bo'lmasmikin? Albatta bo'ladi, faqat ishni yig'ishtirib qo'ymasdan, o'rni, me'yori bilan dars jarayonida o'ynaladigan o'yinlar va darslardan tashqari vaqtda-sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'ynaladigan o'yinlarni shartli ravishda katta ikki guruhga bo'lsa bo'ladi:

A) ma'lum mavzu bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'yinlar;

B) ma'lum mavzu bilan bevosita bog'lanmagan, ammo o'rni-o'rni bilan o'ynaladigan o'yinlar:

Birinchi guruh o'yinlarni beyarli hamma mavzuga bog'lab o'tkazsa bo'ladi, ko'pgina o'qituvchilar unga o'zlaricha nom o'tkazadi va ma'lum qoidani mustahkamlaydilar, bolalar zerikishining oldini oladilar.

Ilgaridan qo'llanib kelgan «harflar estafetasi» (estafeta, -«zanjir» deb ham yuritiladi) deb atalgan o'yinda o'quvchining so'z boyligini oshirish, hojirjavoblikni o'stirishni maqsad qilib qo'yib, istagan vaqtda o'tkazish mumkin bo'lsa-da, asli undan «Ot», «Atoqli va turdosh otlar», «Sifat», «Fe'l» mavzularidan foydalanish kerak. Bu o'yinni juda ham ko'p variantlarda o'tkazsa bo'ladi. O'quvchilarning yoshi qanchalik kichik, bilim doirasi qanchalik tor bo'lsa mavzuni shuncha keng, yosh qancha ulg'ayib borsa, bilim chuqurroq bo'lsa, mavzu torayib boriladi. Bu o'yinning asosiy sharti avvalgi o'quvchi aytgan so'zning oxirgi harfi bilan keyingi o'quvchi yangi so'zni boshlashi kerak: mashina-anor-rom; Malika-asal-loy-yo'ng'ichqa.

Mabodo o'quvchi so'z aytolmay qolsa, u ball yutqazadi, ballar hisobga olib boriladi va eng ko'p ball yutqazgan o'quvchi o'ynab, qiziqchilik qilib she'r, xullas bir narsa aytib beradi.

quyi sinflarda yuqoridagi tartibda, mavzu qo'ymasdan; yuqoriroq sinflarda mavzu konkretlashtirilib boriladi. «Dehqonchilik» deyilsa: uzum-malina-anor-rediska-anjir.

Shaharlar deyilsa: Toshkent-Termiz-Zarafshon-Namangan-Navoiy...

qiz ismlari deyilganda: Ra'no-Olma-Anora... deyiladi. O'yinni «uy anjomlari», «asboblar», «o'simliklar», «hayvonlar», «kitob nomlari», «qo'shiqlar», «shoir va yozuvchilar», «asar qahramonlari», «kishining tana a'zolari» mavzularida ham o'tkazish mumkin. quyi sinflarda harflar emas, «so'zlar estafetasi»ni o'tkazgan ma'qul. Bunda «Maktabga oid so'zlari», «insonga oid so'zlar», «hayvonlar», «tabiatga oid so'zlar» kabi mavzular ish beradi.

«Chizmalar» izidan deb atalgan grammatik o`yin «Gap bo`laklari»ni o`rganishda qo`llanadi. Har bir bo`lak o`z belgisiga ko`ra shakl (snema) sifatida beriladi. Ma'lumki, ega-_____, kesim-_____, to`ldiruvchi----, aniqlovchi-----, hol-..... shaklda belgilanadi.

Topshiriq shu belgilar aosida beriladi.

Xuddi shu o`yin «Raqamlar nazorati» nomi bilan so`z turkumlarini o`rganishda ham, «gap bo`laklari»ni o`rganishda ham muvaffaqiyatli qo`llanadi. Bunda so`z turkumlari, gap bo`laklari raqamlar bilan belgilanib, topshiriq raqamlar orqali beriladi:

Ot-1	bog`lovchi-7
Sifat-2	ko`makchi-8
Son-3	yuklama-9
Olmosh-4	undov-10
Fe'l-5	taqlid so`zlar-11
Ravish-6	boshqalar-12

Ega-1, kesim-2, to`ldiruvchi-3, aniqlovchi-4, payt holi-5, o`rin holi-6.

O`quvchilar guruhlariga bo`linib, ularga alohida topshiriq beriladi.

1-variant 1, 2 (ega, kesim)-? (Aziza so`zladi).

2-variant 1, 3, 2 (e. t. k.)-?

3-variant 1, 4, 3, 2 (e., an., t., k.)-?

4-variant 6, 1, 5, 2 (o` h., e., p.h., k.)-?

5. So`z turkumlari bo`yicha umumsinf ishi: 6,1,7,1,5,3,2 (r, ot, b, ot, ot, ot, f) (Kecha otam bilan akam Chimkentdan mashina keltirdi). Topshiriq aksincha berilishi mumkin: Ya'ni gap beriladi va «Raqamlar nazorati» bo`yicha javobi so`raladi: qishlog`imiz, bolalar, juda go`zal. qani aytingchi, javobi qancha chiqdi?

Javob: qishlog`imiz (e-1, bolalar-undalma,-juda go`zal-2). Demak-1,0,2. Kecha biz daladan kech qaytdik.

Javobi qancha? Javobi-5,1,6,5,2.

Bu shunday qaraganda gap tahlilining o`zi, ammo muammo qo`yilgani uchun bolalarga yoqib tushadi.

Bu ikki o`yinni tahlilning deyarli barcha turlarida qo`llash mumkin. Chiziqlardan esa «ko`chma gap», «so`z tarkibi», «qo`shma gaplar», «uyushiq bo`lakli gaplar», «undalma», «kirish so`zlar», «undov so`zlar», «ajratilgan bo`laklar», «so`z birikmasi» va boshqa mavzularda qo`llangan.

«Konvert» o`yinidan fikrlashni o`stirish, bolalarni izlanishga o`rgatish, o`tgan mavzularni eslash, xotirani mustahkamlash maqsadida istagan sinfda foydalanish mumkin. Bu o`yinni o`ynashda sinfni tabaqalashtiradi va bolalar bilimiga qarab konvertlar tayyorlanadi.

Tayyorlangan uch guruh konvertda (kuchli, kuchsiz, o`rtacha bilimli bolalar uchun) quyidagi savollar berilishi mumkin.

A. Birinchi guruh konvertlarda: (2-3 ta konvert):

1. Bosh bo`laklarning to`g`ri-noto`g`riligini aniqlang.

Dalada o`rim boshlanadi.

2. Ikkinchi darajali bo`laklarning to`g`ri-noto`g`riligini ayting.

Daraxtlar qiyg`os gulga kirdi.

3. Gaplarni to`ldiring

Kecha men.....

4. qo`shimchalarni qo`shing.

Talaba... Turkiya.... jo`na.... ket.....

5. Sumbula tushdi va suv sovudi gapidagi bosh bo`laklarni toping.

6. O`nta yangi so`z yozing.

B. Ikkinchi guruhdagi konvertlarda:

1. quyidagi fikrni bir necha xil uslublarda berishga harakat qiling.

Maqsadim xalq hayotini yaxshilashdan iborat.

2. Badiiy tasvir qo`shing.

g`o`za ochildi.

3. Sinonim qator tuzing.

A) eshitildi.

B) yaratuvchi.

4. Bosh va ergash so`zni aniqlang.

So`zlang dam yoqimli –yo oz.

5. qoidaga binoan yozing.

Gul (bahor), O`rta (Osiyo), qizil (gul), tosh (yo`l), ot (boqar), xo`ja (savdogar).

3. «Yur» so`zining uslubiy bo`yog`i so`z ekanligini isbotlang.

Uchinchi guruh konvertlarda:

1. To`g`ri javobni aniqlang.

O`quvchilar, maktab, o`qimoq-so`z birikmasi?

Haydov traktori-so`z birikmasi?

2. Yashil barg-bosh so`z avvl keladi

Kitob o`qish-bosh so`z keyin keladi.

3. quyidagi so`zlarga qo`shimcha qo`shib yozing:

Son-a....., ong-la....., bog`-la

Past-aydi....., og`iz-i....., yarim-i.....,

Kuy-a....., uy-a.....

4. qo`shma kesimdagi fe'llarning ma'nolarini ayting.

U ketib qoldi. Biz ishlab chiqdik. qushcha sayrab berdi.

5. «Edi» fe'lining shakllarini qo`shib 3-4 ta gap tuzing.

Bu o`yinni o`tkazishda guruhlar sonini uchtaga etkazib, uchinchi guruhdan gap tuzishni talab qilish ham mumkin.

Uchinchi guruh:

Buyuk inson gapirdi. qizil qalam oldim.

Xuddi shu yo`sinda ot bilan fe'lga, ravish bilan fe'lga, olmosh bilan fe'lga so`zlar topib, birikma yoki gaplar tuzish mumkin. Bu o`yin tezkorlik bilan o`tganidan beparvo, e'tiborsiz o`tirgan bolalar yutqazaveradi. Demak, o`yinda bolalar diqqat qilib, tinglab o`tirishga ham o`rgatiladi.

«Ot yasovchilar», «Sifat yasovchilar» mavzularini o`rganishda qo`llaniladigan «Musobaqa» o`yinida parta yoki qatorlar bo`yicha musobaqa uyushtirilib, doskada yasama ot, yasama sifat (alohida yoki birga bo`lishi mumkin) yoza boshlaydilar. qaysi guruh ko`p so`z yozsa, shu guruh g`olib hisoblanadi.

«Fe'l zamonlari»ni o`rganishda ham uch o`quvchini doskaga chiqarib uch zamonga misol yozdiriladi. Kim ko`p misol yozsa, shu g`olib sanaladi.

«Topishmoq» o`yining yana bir turi «qo`sh topishmoq» (metagramma) bo`lib, uning juda xillari mavjud. (palla-kalla, cho`l-do`l-yo`l kabi) bo`lib, shundan bittasi haqida fikr yuritamiz. «qo`sh topishmoq» da ikki yoki bir misra qofiyali so`z aytiladi-da, biror qofiyadosh nom (so`z) yashiriladi. Topishmoqning bu turidan ijodkorlik, topqirlikni o`stirish, she'r yozishga o`rgatish uchun foydalanilsa ham aslida bu misralar tahlil uchun juda ko`p keladi. Ikkinchi tomondan darsni jonlantiradi, zerikishning oldini oladi.

Durdan qimmat, turadi. (ko`z).

Barcha yurar tekis joy (yo`l).

Aql o`rgatmoq ishi. (kitob).

Kuydirar issiq tishi. (oftob).

Aql-hushlar makoni. (bosh).

Kiprik o`qlar kamoni. (qosh).

So`zi nurli, izi qop-qora. (qalam).

Chegarasi yo`q osmon-o`ra. (olam).

Usiz yashab bo`lmas hech bir tirik jon. (qon).

Behad qadrlidir u bilan inson. (non).

Yozildi oppoq to`shak. (qor).

Dillarni yozar beshak. (tor).

Sergak vafodor posbon (it).

Suv ichar, undan osmon (ko`l).

Osmon bilan o`pishgan kekxa (tog`).

Sharbat eydi kim uni ekxa (bog`).

Ikkinchi guruh o`yinlariga boshqotirma, kriptogramma, kulish uchun tuzilgan qiziq (hazil) savollar, g`alati so`zlar, rebus va boshqalar kiradi. Ulardan ba`zan dars jarayonida foydalansak ham, aslida sinfdan tashqari mashg`ulotlar, kechalarda ko`proq foydalaniladi. Bular quyidagilar:

D. Nomi ham, asari ham osmon jismlari bilan bog`langan, nomi qo`shma so`zdan iborat yozuvchini ayting. (Oybek. «quyosh qo`shig`i», «quyosh qoraymas»).

E. Taxallusi tarjima qilinganda ham atoqli ot bo`lgan shoirmi ayting. (Muqimiy-Turg`un).

J. qaysi yozuvchining taxallusi ikkita chet tilidan olingan (Ayniy-ayn (nemischa)-bir, ayn-tojikcha-buloq).

Rebus tuzish, uni echish bolalar uchun juda katta shodlikdir. Rebus tuzishdagi ijodkorlik, echishdagi topqirlikning o`zi uni har gal yuksaklikka tortaveradi, aqlini o`stiradi, bolaning imkoniyatini kengaytiradi. Uning javobi bo`lgan har xil maqol, hikmatli so`z, topishmoq yo boshqa adabiy parchalar bola xrtirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi va unga ma`naviy ta`sir ko`rsatadi, shuning uchun uni tuzish, echilishni barcha bolalar bilishi kerak.

Rebus tuzishning bir qancha yo`l va shartlari bor:

A) rebusda yashiringan fikr hammaga tushunarli bo`lgan rasmlar orqali ko`rsatiladi;

B) rasmlar to`g`ri, teskari joylashtirilishi mumkin va u qanday tursa, shundayicha o`qiladi. (in-ni, tom-mot);

V) so`zlarning boshi va oxiridan bir-ikki harf tushirib qoldirilishi mumkin. Bu vergul bilan ifodalanadi. (maktab-aktab, bola-la, ruchka-ruch va hakoza);

G) so`zning o`rtasidagi harfni tushirish uchun uni shu so`zning tepasiga yozib, chizib tashlanadi;

D) so`z tarkibidagi so`zlarning o`rni almashtirib ishlatilishi ham mumkin. Buning uchun harflar raqam bilan belgilanadi va shu raqamlar maqsadga muvofiq almashtirib yoziladi. (1 2 3 4 5 - 1 4 3 2 5) K o t i b- k i t o b

E) so`z tanlashda etmay qolgan harflarning o`zi yoziladi, raqam bilan belgilanadi. So`z esa kimyoviy belgi bilan ham belgilanishi mumkin.

Temir -g`e (ferrum), mis-Si (kuprum), oltin -Ai (aurum), yoki bir-1;

J) tinish belgilar o`z joyida qo`yiladi;

Z) ba'zan bir harf ikkinchi harfning ichi (sirti), osti, ustida berilishi ham mumkin. Bu os, so, o (avvalgi so`zga qo`shilishi, «ichida» so`zi qo`shilishi va «s» keyingi so`zga qo`shilishi mumkin.

Rebus tuzuvchining topqirligi, ijodkorligiga ko`ra, uni tuzishning mutlaqo bo`lak yo`llari ham bo`ladi):

A) «Ona yurtning –oltin beshiging» maqolini eng sodda yo`l bilan quyidagicha yashirish mumkin. Ot, un, ari, yuz (100), rom, tili, qn-olti (6), N besh (5) iz, q, g;

B) Sanamay sakkiz dema

Sanam ay- sakki (2) z dema.

S) Daryo chopar – chaqqon topar. Daryo – chop, zar. Chaqsh, qon – top ariq.

«Reportaj», «Intervyu», «Uchrashuv» o`yinlarida ishni qiziqarli qilib tashkil etish uchun eng zarur kasb egalarini qatnashtirish, o`quvchilarni zeriktirib qo`ymaslik uchun gaplarni qisqaroq tuzish, hajv aralashtirish va bunda kasbning eng asosiy xususiyatini ko`rsatib berishga harakat qilish zarur.

2-sinfda grammatik o`yinlarni o`tkazish yo`li bilan o`quvchilar bilimni mustahkamlash

O`tgan yillar davomidagi kuzatishlarda savod o`rgatish davridagi darslarda, amaliy mashg`ulotlarga keng yo`l berish, bilim va malakalarni singdirishda qiziqarli va jonli narsalardan, texnika vositalaridan, turli o`yinlar va o`yin xarakteridagi mashqlardan foydalanish samarali natijalar berishi aniqlandi. Darslarda o`yin elementlarini qo`llash o`quvchilar qiziqishini oshirib, ularning fikrlash, o`ylash va o`yin orqali tushunchalari ortib boradi.

Dars mavzusi va maqsadiga muvofiq tanlangan o`yin xarakteridagi mashqlar o`quvchilarning qulay va puxta o`zlashtiroishlarini olish, uni sof holatda talaffuz, so`z tarkibini tashkil qilish o`quvchilarning lug`atlarini boyitishi va bog`lanishli nutqlarini o`stirishga yordam beradi.

Mashqlar aniq maqsadga yo`naltirilgan, sodda, qisqa va o`quvchilarga tushunarli bo`lishi kerak. quyida biz savod o`rgatish davridagi darslar uchun o`yin xarakteridagi mashqlardan namunalari keltiramiz.

Aytilgan tovush bilan so`z topish.

Mashqning bu turi o`quvchilarga yangi tovush o`rgatilganidan keyin uni mustahkamlash maqsadida o`tkaziladi. O`quvchilar qiziqishini o`rttirish maqsadida har bir darsda mashqning yangi ko`rinishlaridan foydalanish mumkin. Masalan, «a», tovushi ishtirok etgan so`zlardan o`ylang. Kim ko`p so`z aytadi? Deyiladi.

O`quvchilarga o`ylash uchun biroz vaqt beriladi. So`ng ulardan navbat bilan so`rash mumkin. Musobaqa xarakteridagi bunday mashqlar davomida topshiriqni bajargan, ya'ni «a» tovushi ishtirok etgan so`zlardan o`ylab topgan o`quvchilarni qo`l ko`tarishga odatlantirish

tarbiyaviy ahamiyatga ega. O`quvchilar navbat bilan o`ylab topgan o`quvchilarni qo`l ko`tarishga odatlantirish tarbiyaviy ahamiyatga ega. O`quvchilar navbat bilan o`ylab topgan «a» tovushli so`zlarni aytadilar: archa, randa, arra bola, odam, ona, ota va hakoza. O`quvchilardan qaysi biri «a» tovushli so`zlardan ko`proq aytsa, u rag`batlantiriladi. Agar o`quvchilardan biri adashib «a» tovushi ishtirok etmagan so`z aytilsa, u so`zni o`quvchilar bilan tahlil qilinadi.

O`quvchi ota, ona so`zlaridan keyin buvi so`zini ham aytsa, uni to`xtatib, o`qituvchi bolalarga murojaat qiladi:

-Murodjon «a» tovushi so`zlar aytdi. qani hammamiz eshitaylikchi: ona «a» bormi? (bor), ota- «a» bormi? (bor), buvi – «a» bormi? (yo`q).

O`quvchilar orasida ikkilanish paydo bo`lib, so`zda aytilgan tovushning bo-yo`qligi haqida javob qilmasalar, o`qituvchi u so`zni bo`g`inlab, tovushlar talaffuziga e'tibor berib takrorlaydi: bu-vi yoki b-u-v-i.

«O» tovushi o`rgatilganda bu mashqning aynan o`zidan emas, balki ikkinchi ko`rinishidan foydalanish mumkin. O`quvchilardan «o» tovushi ishtirok etgan so`z topish emas, faqat «o» tovushi bilan boshlanadigan so`zlardan aytishlari talab qilinadi. Shu o`rinda ham ko`proq aytgan o`quvchilar rag`batlantiriladi. Bulradan biri «o» tovushi bilan boshlanmagan so`z aytsa, u so`zni tahlil qilib, «o» tovushi bilan boshlanmasligi mutlaqo yo`qligi tushuntiriladi.

Keyingi darsga «n» tovushi o`rgatilgach uni mustahkamlash maqsadida o`quvchilarga oxiri «n» tovushi eshitaladigan so`zlar topishni aytish mumkin. Aytilgan tovush bilan so`z topish mashqidan barcha darslardan foydalanish mumkin. Lekin har safargi mashq oldingi mashqdan biror sharti bilan farq qilsa qiziqarli bo`ladi.

Bu mashqning yuqorida ko`rib siqilgan uch ko`rinishidan tashqari «aytilgan tovush bilan boshlanadigan hayvon nomlarini atash», «nomida o`rgatilgan tovush ishtirok etadigan o`quv quollarini atash», «kimlarning ismida o`rganilgan tovush bor?» singarilarni har bir o`qituvchining o`zi ijod qilishi mumkin.

Bunday bajariladigan mashqlar o`quvchilarga qat'iy topshiriq, vazifa sifatida emas, balki o`yin, musobaqa tarzida tavsiya qilinsa qiziqarli bo`ladi. Ular zo`r ishtiyoq bilan bajaradilar. Shuningdek, tavsiya etilgan mashqning shartiga ko`ra to`g`ri bajarilgan o`quvchilarni rag`batlantirib borish, ayrim o`quvchilar kamchiligini o`z o`rnida tuzatish muhim ahamiyatga ega.

Harfni o`qish.

Mashqning bu turi belgilangan tovush o`rganib, uning grafik belgisi – harf ko`rsatilganidan keyin uni mustahkamlash maqsadida o`tkaziladi.

Olti yoshli o`quvchilar 5 – 6 harf o`rganganlaridan keyin ulardan ayrimlari nomini almashlab aytadilar yoki unutib qo`yadilar. Ana shu kamchilikning oldini olish maqsadida bu

mashqning turli ko`rinishlaridan o`rni bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun kesma, harflardan, maxsus moslamalardan va texnika vositalaridan foydalanish mumkin.

Yangi harf o`rgatilganidan keyin uni o`qituvchi ko`rsatib ilgari o`rganilgan harflarga taqqoslaydi, farqini tushuntiradi. Bolalar ko`rgan harflarini o`qiydilar.

Ko`rsatilgan 5-6 harfni to`g`ri o`qigan o`quvchilar rag`batlantiriladi. Agar bola ko`rsatilgan harflardan birining nomini almashtirib o`qisa, o`quvchi aytgan oldingi ko`rsatilgan harfga taqqoslanadi. Masalan, o`qituvchi kesma «M» harfini ko`rsatsa, o`quvchi «E» deb o`qishi mumkin.

Bu o`rinda o`qituvchi kesma «m» va «e» harflarini ko`rsatib ularni taqqoslaydi, farqlarini izohlaydi.

Ana shunday mashqlar orqali o`quvchilar harf shaklini puxta o`zlashtirishlariga erishish mumkin.

Yangi tovush harf o`rganilganidan keyin uni mustahkamlash maqsadida shu kungacha o`rganilgan barcha harflarni maxsus moslamaga terib, harflarning bir qismi lenta bilan to`sib qo`yiladi. Harflarni puxta o`zlashtirgan o`quvchilar moslamadagi harflarning yarimini ko`rib, ularni o`qishda qiynalmaydilar. O`qishda qiynalgan o`quvchilarga kesma harflarni to`la ko`rsatib, ularni bir-biri bilan taqqoslab tushuntiriladi.

O`rganilgan harflar maxsus lentaga yoziladi. Moslama yoki filmskop apparatidan foydalanib ekranga tushiriladi. O`quvchilar ekranda ko`rgan harflarini o`qishlari kerak. Bu harflardan ko`proq o`qigan o`quvchilar rag`batlantirilib boriladi. O`qishga qiynalgan yoki o`qimagan o`quvchilarga esa harflarni qayta ekranga tushirib, o`qishga o`rgatiladi.

Lentaga yozilgan harflarni filmskop, epidoskop, kodoskop yoki maxsus moslamadan foydalanib, ekranga tushirib o`qitish olti yoshli bolalarga nihoyatda qiziqarli bo`lgani uchun mashqning bu turini tez-tez takrorlab turish foydalidir.

Kim sezgir.

Mashqning bu turi o`quvchilarga yangi harf o`rgatilganidan keyin uni qay darajada o`zlashtirganliklarini sinash va mustahkamlash maqsadida o`rkaziladi. Buning uchun o`qituvchi maxsus moslama yoki doska tagligiga o`rnatilgan harflarni ma'lum bir tartibda teradi. Avval o`qituvchi o`qiydi. O`quvchilarga ham navbat bilan o`qitiladi. So`ng bolalarga sezdirmay ayrim harflar o`rni almashtirilib qo`yiladi. Masalan, doska tagligi yoki magnitli doskaga a, o, p, i, l, u, m harflarini terib, o`qituvchi va o`quvchilar tomonidan o`qilgan bo`lsa, bolalar diqatini chalg`itib turib, p, i, l, m harflari o`rni almashtirib qo`yiladi.

Keyingi safar o`quvchilarga o`qitilganda ular harflar o`rni almashganligini sezib, to`g`ri o`qishlari kerak. Yo`l qo`yilgan xatolar o`rnida ko`rsatib, tuzatib boriladi. Agar o`quvchi «n»

harfini ko'rsatib «i» deb o'qisa, o'qituvchi «n» harfining «i» harfidan farqini taqqoslab tushuntirib beradi. O'rni almashgan harflarni to'g'ri o'qigan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Mashqning bu turini harf kassasi, magnitli doska, magnitli alfavit, sirli mato yordamida turlicha tashkil etilsa o'quvchilarga qiziqarli bo'ladi.

Sxema asosida so'z tuzish.

Mashqning bu turi 5-6 va undan ortiq harf o'rganilgandan keyin o'tkaziladi. Dastlab o'quvchilarga unli harflarni qizil, undosh harflarni ko'k doirachalar bilan belgilash o'rgatiladi.

Sxema asosida so'z tuzish mashqlari davomida o'quvchilarning tushunchalari asos qilib olinadi.

Mashqning bu turi o'quvchilar bilim doirasining kengayib borishiga qarab turli usullarda o'tkazilishi mumkin.

O'qituvchi doskaga unli-undosh-unli tovushlardan iborat so'z sxemasini chiqadi va har qaysi tovush o'rniga doirachalar qo'yadi. qizil-ko'k-qizil doirachalar asosida o'qituvchi ona, ota singari so'zlardan aytib, sxema asosida tashkil qilib tushuntiradi.

O'quvchilardan ham ana shu sxema asosida so'z tuzish talab qilinadi. Ular aka, uka, edi, ana, ela singari so'zlardan aytishlari mumkin.

Sxema asosida hayvon nomlarini aytish.

O'qituvchi doskaga undosh-unli, undosh-unli-undosh tovushlar sxemasini chizib, shu sxema asosida aytiladigan hayvon nomini so'rsa, o'quvchilar mushuk deyishlari kerak.

O'quvchi boshqa so'z aytsa, u aytgan so'z tovush jihatdan tahlil qilinib, bu so'zning sxemasi chiziladi va oldingi sxemaga taqqoslanadi. Bu bilan o'quvchilar so'z tarkibi o'rganib, lug'ati yangi so'zlar hisobiga boyib boradi.

Sxema asosida so'z tuzish mashqini tarkibi turlicha bo'lgan so'zlar, hayvon, parranda, sabzavotlar va boshqa narsa nomlari asosida tashkil qilish mumkin.

Harf ko'rsatish.

Mashqning bu turidan barcha darslarda foydalanish orqali o'quvchilarning harf shakllarini puxta o'zlashtirishlariga erishish mumkin. Buning uchun ko'rinishlaridan foydalashi kerak.

8-10 harf o'rganilganidan keyin o'qituvchi ayrim harflarni aytib, uni harf kassasidan topishni talab qiladi. Masalan, a, o, n, i, e, u, m, o' harflari o'rganilganda o'quvchilarning bu harf shakllarini qay darajada o'zlashtirganliklarini sinash va mustahkamlash maqsadida harf kassasi asosiyda ana shunday mashq o'tkaziladi.

O'quvchilar harf kassalarini ochib tayyorlanadilar. O'qituvchi kuzatib chiqadi. So'ng «u» deganda hamma o'quvchilar «u» kesma harfini olib yuqori ko'tarish kerak. Agar o'quvchilardan

biri «u» o`rniga «o» yoki boshqa biror harfni ko`rsatsa, o`sha harf bilan o`qituvchi aytgan harf taqqoslanadi. Ularning farqi izohlab tushuntiriladi.

4-5 nafar bola doska oldiga taklif qilinadi. Ularga o`rganilgan haflardan aytib, alfavitlardan topishlari aytiladi. Ushbu harfni o`quvchilardan qaysi biri texz aytsa, u rag`batlantiriladi. Noto`g`ri ko`rsatgan o`quchiga izohlab tushuntiriladi. Masalan, o`quvchilarga «b» harfini ko`rsatish aytilsa, ulardan biri «d» harfini ko`rsatishi mumkin. Bu holda o`qituvchi kesma «b» va «d» harflarini taqqoslaydi. Ularning fikrini tushuntirib, shakllarini o`zlashtirib qolish ta'kidlanadi.

O`qituvchi kesma harflarni aralashtirib beradi. Ular orasidan o`quvchi aytilgan harfni topishi talab qilinadi. Bolalar o`zlarining kesma harflarini ham aralashtiri, ularning orasidan aytilgan harfni tez topish musobaqasini uyushtirishlari mumkin.

Shuningdek, darslarda harflarni guruhlash, bo`g`in tuzish, so`z tuzish, qaysi so`z, so`zning birinchi tovushi, so`zning oxirgi tovushini topish, so`zdan so`z tuzish, adashgan harf singari o`yin mashqlaridan, tez aytish va topishmoqlardan o`rinli foydalanish orqali o`quvchilar faolligi oshiriladi.

3.2. 2-sinfda grammatik o`yinlarni o`tkazish yo`li bilan o`quvchilar bilimini mustahkamlash.

Bolalarni to`g`ri orfografiya talaffuziga o`rgatish, ularning og`zaki nutqining aniqligi va ta'sirchanligini ta'minlash, so`z boyliklarini kengaytirish, so`zni to`g`ri va o`z o`rnida aniq qo`llashlariga, so`z birikmasi va gap tuza olishlariga erishish boshlang`ich sinflarda ona tilidan o`tkaziladigan darslarning asosiy mundarijasi hisoblanadi.

Shu maqsadda ikkinchi sinfda quyidagi o`yin mashg`uloti o`tkazish tavsiya etiladi.

«So`zning o`rnini topish» o`yini

Ushbu o`yin vositasida kishilarning ismi va familiyasi, ko`cha, daryo nomlari va hayvonlarga qo`yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi mustahkamlanadi.

O`yinni o`tkazishdan oldin o`yin ishtirokchilariga kartochka ulashib beriladi. Kartochkada she'riy parcha yoki gap yozilgan bo`lib, ma'lum so`zlar tushirilib qoldiriladi.

Gap yoki she'riy parchadan tushirib qoldirilgan so`zlar alohida kartochkada saqlanadi.

Masalan,

Fasllar kelinchagi

Bahor kezardi.

..... bo`yni

.....sohilini gullar bezardi,

.....yaratgan ulug` o`lkani

.....kelinchagi bahor kezardi. (P.Mo`min).

Tushirib qoldirilgan so`zlar: go`zal, uchirib, Orol, xalq, fasllar.

Yoki

Har kuni otganda tong

Chaqirganda pochta

.....

Yugirishar uchovlon.

Biri «....» ni olar

Biri so`rar «.....»

Pochta shoshib qolar

Ammo kichkina

Go`yo kattalar taqlid:

«.....» ni bering der (P.Mo`min).

Tushirib qoldirilgan so`zlar: Ozod, Tabassum, jamshid, «g`uncha», «Gulxan», «Fidokor».

qaysi o`quvchi she`riy parchadan tushirib qoldirilgan so`zni to`g`ri topib o`rniga qo`yya qolsa, shu o`quvchi o`yinda g`olib chiqqan bo`ladi.

O`qituvchi yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida ushbu o`yinning boshqa turidan ham foydalanishi mumkin.

Ketma-ket bir xil undoshli so`zlarning yozilishiga doir o`yinlar

O`yinning maqsadi: ketma-ket kelgan bir xil undoshli so`zlarning yozilishini mustahkamlash.

O`qituvchi sinf o`quvchilariga ketma-ket kelgan bir xil undoshli so`zlarga misol keltirishni aytadi.

Masalan, Mukarram, Muattar, Muharram, Sa'dulla, Abdulla.

Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so`zlardan kim ko`p aytsa (yoki ko`p yoza olsa) shu o`quvchi o`yinda birinchi hisoblanadi.

«Kim ko`p biladi» o`yini.

O`yinni o`tkazishdan oldin o`qituvchi doskani uch bo`lakka ajratadi. 1-bo`lagiga «mm», 2-bo`lagiga «ss», 3-bo`lagiga «ll» kabi ketma-ket kelgan bir xil undoshli so`zlar beriladi. O`quvchilar uni davom ettiradilar. Kim ko`p so`z yozsa o`sha o`quvchi o`yinda g`olib chiqqan sanaladi.

Masalan, hamma, kassa, pilla.

Bir xil undoshli ketma-ket kelgan qizlarning nomlaridan misol keltirish.

Mukarram, Muharram, Musharraf....

Topishmoq javobida ketma-ket kelgan bir xil undoshli so`z bo`lgan topshiriqlardan aytish:

Bo`yi bir qarich

Soqoli qirq qarich. (Makkajo`xori)

«To`rtinchisi ortiqcha» o`yini

O`yinning maqsadi:

O`quvchilarda mantiqiy tafakkurni o`stirish. So`z oxirida «b, p» va «t,d» undoshlarining qo`llanishiga oid so`zlardan aytiladi.

Masalan,

B-p	b-p	yoki	d-t	d-t
Kanop	Tolib	Murod		daraxt
To`p	kitob		daftar	do`st
Ko`p	odob		payvand	go`sht
Hisob	kabob		shod	bola

O`yinda qatnashuvchilar oxirida b, p yoki t, d uchramagan so`zni topib aytadilar. Ortiqcha so`zni topgan o`quvchilarga ball belgilanadi.

1-sinfda bolalar qanday? qanaqa? so`roqlariga javob bo`lgan so`zlarni, ikkinchi sinfda esa bunday so`zlar sifat deyilishini o`rganib oladilar. O`quvchilar bunday so`zlar bilan mashq qilish jarayonida otlarga mos sifatlar, sifatlariga mos otlar topishni o`rganadilar.

«Kim tez topa oladi?» o`yini

Sinf o`quvchilari bir necha guruxga ajratiladi. O`yinni boshqaruvchi o`qituvchi yoki o`quvchi predmetni yoki shu predmetning rasmini o`quvchilarga ko`rstadi. O`quvchilar ko`rgan predmetlarining nomini uning belgisi bilan aytadilar. qaysi guruh o`quvchilari o`yinda faollik ko`rsatsa, o`sha guruh g`olib hisoblanadi.

«Kim ilg`or» o`yini

Doskaga so`z oxirida t, d undoshlari tushib qolgan quyidagi so`z birikmalari yozib beriladi. O`quvchilar nuqtalar o`rniga kerakli harflarni qo`yib, so`zlarni ko`chirib yozadilar. qaysi guruh ishni tez tugatsa, o`sha guruh ilg`or hisoblanadi.

Masalan,

katta darax	go`zal Samarqan.....
qizil g`ish.....	asfal..... ko`cha
balan....bino	Toshken shahri
bolalar xursan.....	badiiy teks.....

«qiziqarli» o`yin

O`qituvchi misol tariqasida predmet (bola) nomini aytadi. O`quvchilardan biri unga mos sifat topib aytadi (kichkina). Boshqa guruhdagi o`quvchilar shu predmetning sifatiga qarama-qarshi ma'no bildirgan sifatlardan aytadilar (katta bola). O`yin uchun quyidagi so`zlardan foydalanish mumkin: issiq kun-sovuq kun; qizil qalam-qora qalam; toza suv-iflos suv....

Yoki o`qituvchi doskaga sifatlar yozadi:

Uzun.....	Ko`m-ko`k.....
Baland.....	Tor.....
qizil.....	Achchiq.....
Chiroyli.....	Yam-yashil

Bolalar berilgan sifatlarga mos bir qancha predmetlarni topib yozadilar. Berilgan topshiriqni kim birinchi va to`g`ri bajarsa, shu o`quvchi o`yinda g`olib hisoblanadi.

O`quvchilarning ona tili darslariga bo`lgan qiziqishini oshirish maqsadida bir qancha o`yin turlaridan foydalanib o`quvchilarda puxta ko`nikma va malaka hosil qilinadi.

Men pedagogik amaliyotni Jizzax shahridagi Sharof Rashidov nomli 10-o`rta maktabda o`tadim. Unda Fozilova Zulfiya opa rahbarlik qilayotgan 1 «V» sinfi o`quvchilari bilan ish olib bordim. Hozir mana shu sinfda o`tgan «Alifbe» darsi lavhasini keltirib o`taman.

Dars lavhasi:

Mavzu: «B b» harfi.

Dars maqsadi: o`quvchilarga mustahkam bilim berish. «B b» harfini o`qilishi, shakli bilan yaqindan tanishtirish, o`quvchilar nutqini o`stirish.

Jihoz: darslik, doska, krtochka, rasmlar, plakatlar.

Dars uslubi: o`rgatish, tushuntirish, savol, javob, rag`batlantirish, baholash.

Darsning borishi:

- A) tashkiliy qism;
- B) mustahkamlash;
- V) yangi mavzu bayoni.

Tashkiliy qism:

Qo`ng`iroq chalindi. Dars boshlandi. Men sinfga kirdim. O`quvchilar bilan salomlashdim. Davomadni aniqlab, ob-havo, yil fasllari haqida suhbatlashdim.

-Assalomu alaykum aziz bolajonlar. Hamma darsga tayyormi?

-Juda yaxshi.

-Hozir qaysi fasl?

-Hozir kuz fasli.

-Bugun havo qanday?

-Bugun havo ochiq, quyosh charaqlab turibdi.

-Bugun sana necha?

-Juda yaxshi.

qani endi to`g`ri o`tirib olamiz.

Bir, ikki, uch,

O`tiramiz tinch.

Hozir darsimiz Alifbe darsi.

-Hamma darsga tayyormi?

-Juda yaxshi. Unday bo`lsa darsni boshlaymiz.

-Biz o`tgan darsda qaysi mavzuni otganmiz?

O`quvchilarga o`tilgan darsni kitobdan birma-bir o`qitib chiqaman. O`tgan darsda «L l» harfi o`tilgan edi. Uyda hamma «L l» harfiga yangi so`zlar topib keldimi? qani kim aytadi?

Sanjar: Laylak

Dilnoza: Lola

Mavluda: Limon

Amirjon: Laylo

Kim mavzuga qarab, ya'ni rasmga hikoya tuzib beradi?

Sharof-Mana bu bog`, bog`da har xil gullar, lola, boychechak, atirgullar ochilgan. Laylo mana shu bog`da har xil gullardan terib, guldasta tuzdi. Uni onasiga taqdim qildi.

Yangi mavzu bayoni

Bugun biz sizlar bilan yangi harf ya'ni «B b» harfi bilan tanishamiz. Hamma kitobni ochsin. Mana bu rasmda nima chizilgan?

-baliq.

-Demak, baliq deganda so`z boshida «B» harfi kelayapti.

Bo`g`inga bo`lamiz.

Ba-liq.

Bu so`z ikki bo`g`indan iborat ekan. Chunki unda ikkita unli harf qo`tnashyapti.

Endi kitobda berilgan so`zlarni o`qiymiz.

Bo-la

bi-no

bosh

Bo-bo

ba-hor

bi-lim-li

Barg

bi-naf-sha

ba-liq

Endi hammamiz darsligimizda berilgan rasmga qaraymiz. qani aytingchi unda nima tasvirlangan ekan?

-Bog`.

Bog`da nimalar bor?

-Gullar, qushlar, mevali daraxtlar.

Rasmga qarab gaplar tuzamiz. Dilnoza –Bog`da har xil gullar bor. Shaxnoza-Bog`da qushlar sayraydi.

Qani endi o`quvchilar hammamiz o`rnimizdan turamiz. Sizlar bilan dam olish daqiqasini o`tkazamiz.

Qushlar uchib kelishdi,
Daraxtlarga qo`nishdi,
Biroz damlarin olib,
Yana uchib ketishdi.
Uch marta aytib bajaramiz.
Bir, ikki, uch, to`rt,
Endi jimgina o`tir.

Mana bolalar biz sizlar bilan «B» harfini o`rgandik. Endi o`tilgan darsni mustahkamlash uchun sizlar bilan bir o`yin o`ynaymiz.

Sinfni 3 ta guruhga bo`lib, har bir guruhga ism tanlaymiz.

1-guruh - «g`uncha»
2-guruh - «quyoncha»
3-guruh - «Ayniqsa»

Endi har bir guruhdan 1 tadan ishtirokchisi turib «B» harfiga oid so`zlarni navbat bilan aytib boradilar.

1 –ishtirokchisi aytgan so`zni boshqa ishtirokchi takrorlamasligi kerak. Agar takrorlasansa, u o`quvchi o`yindan chiqadi. Oxirida qaysi guruh ko`p so`z aytsa va ishtirokchi qolsa, o`sha guruh g`olib sanaladi. O`yin boshlandi va bunda g`uncha guruhi g`olib bo`ldi.

Keyin o`quvchilarga navbat bilan kitobdagi so`zlarni o`qitdim.

Shundan so`ng darsda yaxshi qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantirdim, baholadim. So`ngra uyga vazifa berdim. Kitobdagi so`zlarni o`qish, «b» harfiga oid yangi so`zlar o`rganish.

Dars tamom xayr.

Sinfdan tashqari dars.

Alifbe.

Mavzu: Takrorlash

Qo`ng`iroq chalindi. Dars boshlandi. O`qituvchi sinfga kirdi.

-Assalomu alaykum ustoz.

-Vaalaykum assalom.

Darsni O`zbekiston respublikasining madhiyasi bilan boshlaymiz.

Serquyosh hur o`lkam , elga baxt najot

Sen o`zing do`stlarga yo`ldosh mehribon.

Yashnagay toabad ilmu fan ijod

Shuhrating porlasin toki bor jahon.

Oltin bu vodiylar jon O`zbekiston

Ajdodlar mardona ruhi senga yor.

Ulug` xalq qudrati jo`sh o`rgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.
Bo`g`ri keng o`zbekning o`chmas iymoni
Erkin yosh avlodlar senga zo`r qanot.
Istiqlol mash'ali tinchlik posboni
Xalqparvar ona yurt mangu bo`l obod.
Oltin bu vodiylar jon O`zbekiston
Ajdodlar mardona ruhi senga yor.
Ulug` xalq qudrati jo`sh o`rgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o`quvchilarga mustahkam bilim berish, nutqini o`stirish.

Tarbiyaviy: darsni atrof-muhitga bog`lab o`tish, o`tilgan darsni mustahkamlash.

Jihoz: darslik, ko`rgazmali qurol, doska, qo`shimcha adabiyotlar.

Darsning borishi:

A) tashkiliy qism

B) mustahkamlash

V) uy ishi

Salomlashib, madhiyani aytib bo`lgach, davomatni aniqladim, o`quvchilar bilan ob-havo, yil fasllari haqida suhbatlashdim. Sanani aniqlab, doskaga yozdim.

O`quvchilar bugun havo qanday?

Murod: Bugun havo sovuq. Tashqarida qor yog`ayapti.

-Hozir qaysi fasl?

Kamola: Hozir qish fasli.

-Qish fasliga qaysi oylar kiradi?

Nigora: qish fasliga dekabr, yanvar, fevral oylari kiradi.

-Qishda daraxtlar qanday ko`rinishga kiradi.

Islom: qishda daraxtlar bargini to`kadi.

-Qishda qaysi qushlar bizning o`lkamizga keladi?

Sanjar: qishda bizning o`lkamizga qarg`a, qora qarg`a, ola qarg`alar uchib keladi.

Yaxshi. O`quvchilar biz sizlar bilan barcha harflarni o`qib, o`rganib bo`ldik. Shuning uchun bugun sizlar bilan o`tilgan darslarni takrorlaymiz. Bugun biz sizlar bilan turli xil ertaklar, she'rlar, hikoyalar o`qiyamiz. qani kim o`zi yod olgan she'rlaridan aytadi:

Shaxnoza: Favvoraoy, favvora

Tomchilarga ovvora.

Sho`x tomchilar bolasi,

Favvoraning onasi.

Ayni issiq yoz chog`ida

Cho`milamiz quchog`ida.

Juda ham yaxshi.

Bolalar, biz yaqinda qaysi bayramni ya'ni qish faslida asosan qaysi bayramni nishonlaymiz?

Dilnoza: Biz qish faslida yangi yilni kutib olamiz.

-to`g`ri. qish fasli, yangi yil haqida kim she'r yoki qo`shiq biladi?

Amir: Archa, archa jon archa,

Yaproqlaring ninacha.

Atrofigda aylanib,

Qo`shiq aytadi barcha.

Sanjar: qorbobojon oppoq,

Peshonasi yalpoq.

Hassasi uzunchoq,

Ko`proq bering o`yinchoq.

Juda yaxshi: endi hammamiz o`rnimizdan turamiz. Sizlar bilan dam olish daqiqasini o`tkazamiz:

Boqqa kirsam olmalar,

qip-qizarib pishibdi.

Silkitibdi shamollar,

Erga to`p-to`p tushibdi.

O`quvchilar endi sizlar bilan «Oltin toj» o`yinini o`ynaymiz. O`qituvchi doskaga daraxt rasmi tushirilgan va unda olmalar tasviri ilingan qog`ozni qo`yadi. Olma tasviri ustida 1 dan 10 gacha bo`lgan sonlar yozilgan bo`lib, doskaga o`quvchilar navbat bilan chiqadilar. Raqam tanlab, raqam ortiga yozilgan so`zlarni o`qiydilar. Bu bildan biz o`quvchilarning o`tilgan harflarni qanday o`rganganliklarini bilib olamiz.

O`yin tugagach, yaxshi ishtirok etgan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

Endi o`quvchilar sizlar bilan ertak o`qiyamiz. O`zim birinchi ertakni o`qib beraman. So`ngra o`quvchilardan tushungan yoki tushunmaganliklarini so`rayman.

Ular aytib berishgach endi ularning o`zlaridan yangi ertak aytib berganlarni rag`batlantiraman.

Uyga vazifa darslikning oxirida berilgan hikoyalarni o`qish va yangi ertaklar o`rganib o`qib kelish.

Dars tamom. Xayr.

XULOSA

Shunday qilib, ona tilidan ta'lim mazmuni o`quv topshiriqlarida ham o`z ifodasini topadi.

O`quvchilarning o`quv-bilish faoliyatini faollantirishda ularning imkoniyatlari benihoya katta.

O`quv topshiriqlarining sharti o`quvchilar faoliyatini faollashtirishning muhim vositassidir. Topshiriq sharti o`quvchilarni qiziqirsagina, uni bajarish jarayonida faoliyat faol bo`ladi.

Topshiriqning materiali faollikni qo`zg`atuvchi yana bir elementidir. O`quv materialining tematik rang-barangligi, o`quvchilarning til muhiti va o`lka talablariga muvofiq tushishi ularning faolligini oshirishga katta ta'sir ko`rsatadi.

Ona tili darslarida faqat standart topshiriqlar bilan chegaralanib qolmay, balki nostandart topshiriqlardan ham unumli foydalanishga ko`proq zarurat sezilmoqda. Nostandart topshiriqlar o`quvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, uni bajarishga bo`lgan ishtiyoqini oshiradi. Bu esa faollikni ta'minlashning muhim omilidir.

Dars jarayonida olib boriladigan o`yinlarning qiziqarli va mavzuga oid bo`lishi o`quvchilarning darsda faol ishtirok etishiga olib keladi.

Ona tili darslari mazmunini takomillashtirish va uni o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini faollashtiradigan muhim manbaga aylantirish choralaridan yana biri fan ichidagi fan va fanlararo bog`lanish imkoniyatlarini kengroq ishga solishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. K. Qosimova. «Ona tili o`qitish metodikasi», T., 1985 y.
2. T. Ashrapova. «Ona tili o`qitish metodikasi» T., 1986 y.
3. I. Mirzaev va boshqalar. «O`zbek tili» T., 1978 y.
4. U. Tursunov va boshqalar. «Hozirgi o`zbek adabiy tili» T., 1992 y
5. X. Umarova. «qiziqarli grammatika» T., 2002 y.
6. R. Sirojiddinov. «Grammatik topshiriqlar» T., 1995 y.
7. O`. Qurbonnazarova. «Mustaqil fikrlashga o`rgatish», Boshlang`ich ta'lim jurnali., 1992 y. 2-son.
8. A. Mirzaahmedov. «O`quvchilar faolligini oshirishda noan'anaviy darslar», Til va adabiyot ta'limi jurnali., 1996 y. 3-son.
9. N. Alavitdinova. «Ona tilim – jonu dilim» Boshlang`ich ta'lim jurnali., 2001y, 2-son.
10. M. Hamidova. «Til barcha fanlar kalitidir», Boshlang`ich ta'lim jurnali., 2003y, 3-son.
11. Sh. Sariev. «Nutq sofligi – so`z boyligi», Boshlang`ich ta'lim jurnali, 2001 y, 1-son.
12. Sh. Abdullaeva. «qiziqarli o`yinlar», Boshlang`ich ta'lim jurnali., 1995 y, 3-4-son.
13. Q. Tilovova. «Nutqni boyitish» Boshlang`ich ta'lim jurnali, 1995 y, 3-4-son.
14. B. Ma'qulova. «O`qishga qiziqishni oshirish», Boshlang`ich ta'lim jurnali, 1995 y, 3-4-son.
15. M. Mamatov. «Bilim va sezgirlik», Boshlang`ich ta'lim jurnali, 1995 y, 3-4-son.
16. Boshlang`ich sinflarning ona tili darsliklari va boshqalar.
17. J.G`. Yo`ldoshev, S.A. Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari», T., O`qituvchi, 2004 y.
18. J.G`. Yo`ldoshev. «Yangi texnologiyaning yo`nalishlari, muammolari, echimlari», Xalq ta'limi jurnali., 1999 y, 4-son.

